

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKULTETI**



**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**  
**402-Psixologiya guruhi talabasi Jumaniyozova Saboxatning**  
**5210200-Psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha**  
**bakalavr darajasini olish uchun**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: "KASB- XUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARI VA OLIY O'QUV  
YURTI TALABALARI QADRIYATLARI TIZIMIDAGI FARQLAR"**

**Ilmiy rahbar:**

**katta o`qituvchi S.Sharifzoda.**

**Urganch- 2015 yil**

**Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Psixologiya ta'lim yo'nalishi**

**bitkazuvchisi Jumaniyozova Saboxatning bitiruv malakaviy ishiga**

## **T A Q R I Z**

**Malakaviy ish mavzusi.** “Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlar”

**Malakaviy ishning hajmi.** 13744 so'zdan iborat

**a) tushuntirish qismi varaqlar soni:** 65 sahifadan iborat

**b) ilovalar soni:**

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.** Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir.

**Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati.** Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti, ilmiy farazi, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

**Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijala ridan foydalanilganligi.** Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalardan, Prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari.** Ishda mavzuning ijtimoiy-pedagogik va psixologik jihatlari jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari, barkamol shaxs kamoloti masalalaridan kelib chiqqan xolda yoritib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar.** Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi:



Urganch ijtimoiy – iqtisodiyot kasb-xunar kolleji  
psixologi Sh.Qurbonova

2015 yil «\_\_» may

**KASB- XUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARI VA OLIY O'QUV YURTI  
TALABALARI QADRIYATLARI TIZIMIDAGI FARQLAR**

**MUNDARIJA**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1 bob. Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalarini tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning nazariy jihatlari.....</b>	<b>10</b>
1.1.Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik jixatlari.....	10
1.2. Pedagogik qadriyatlarning kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalarining ijtimoiylashuvidagi o'rni va ahamiyati.....	21
Bob bo'yicha xulosa .....	29
<b>2 BOB. Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalarini qadriyatlari tizimidagi farqlarni o'ziga xos xususiyatlari.....</b>	<b>31</b>
2.1.Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning vositalari.....	31
2.2.Qadriyatlar va ularga xavf solayotgan yot qadriyatlar va madaniyatlar.....	49
Bob bo'yicha xulosa .....	61
UMUMIY XULOSA.....	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	64

## **Kirish**

Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurashning namoyon bo'lishi har qachongidan shiddatli tus olayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda, dunyoning mafkuraviy manzarasining o'zgarib borishi, geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosatning uyg'unlashib borishi, mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlarda mafkuraviy tamoyillar ahamiyatini oshib borishi, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va shu kabilar.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri ushbu jarayonlarga mos keladigan, yangicha fikrlovchi avlodni tarbiyalashdan iborat bo'lib qolmoqda.

Milliy merosimiz va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi tufayli odamlar ongida, tafakkurida muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi o'zgarishlar odamlarimiz qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka, o'z kuchiga, o'z imkoniyatiga ishonch, Vatanga muhabbat, erkinlik, xissini tarbiyalamoqda. «Eng muhimi, aholining ongi tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda odamlarning o'zi o'zgardi»[7. b.13]. Faqat istiqlol xalqimizga o'z Vatanida o'zini erkin xis etish, erkin fikrlash, mustaqil tafakkur yuritish imkonini berdi va u keng ko'lamdagi siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlarni amalga oshirishda asosiy kuch-qudrat bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlarni tahlil qilish bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan guvohlik beradi.

Binobarin, xalqimiz bosib o'tilgan islohotlar jarayonida iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va boshqa sohalar bo'yicha tegishli ma'naviy saboqlar oldi. Darhaqiqat, faqat ma'naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin.

Islahotlar jarayonida erishilgan muvaffaqiyatlar tafakkur va ma'naviyat ozodligi, erkinlikning tantanasi tufaylidir. Ma'lumki, yuksak ma'naviyatning birinchi sharti bu — erkinlikdir, jamiyat a'zolarining o'zini ozod va erkin his etishidir. Zotan, «fuqaro» tushunchasi bilan «erkinlik» tushunchasi o'zarohamohang va ma'nodoshdir. Ozod mamlakatning erkin shaxsida esa keng imkoniyatlar darajasida o'z millati mentalitetiga xos ma'naviy yangilanish sodir bo'lishi, mustaqil tafakkur shakllanishi mumkin.

Bugun ulg'ayayotgan yoshlar ertaga mustaqillikning ishonchli tayanchiga, xalqimizning asosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijodiy, intellektual kuchiga aylanadi. Shunday ekan ularning dunyoqarashi, tafakkuri qay darajada ilg'or bo'lishi, hozirgi davrning yuksak talablarini o'ziga mo'ljal qilib olish, shunga intilish salohiyati mamlakatimiz istiqbolini, millatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeini belgilab beradi. Bugungi voqelik, atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqeahodisalarga yangicha qarash, ularni butun murakkabliklari ila tubdan yangicha idrok etish, yangicha siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mezonlarda baholashni talab etmoqda. Shu bois yangi jamiyat barpo etish jarayonida insonga va jamiyatga, butun borliqqa munosabatni o'zgartirish, ijtimoiy ongni yangilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi. «Chunki tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi»[8.b.34].

Milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimiz, ilm-fan sohasidagi otabobolarimizdan qolgan merosning qayta tiklanishi, xalqimizning milliy o'zligini anglash jarayonining o'sib borishi natijasida xalqimiz tafakkur tarzida muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xayotimizda sodir bo'layotgan bu o'zgarishlar odamlar qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka ishonch tuyg'usini, ozodlik va erkinlik hissini tarbiyalamoqda. Mustaqillik tufayli tobe'lik va qaramlikdan ozod bo'lgan davlatimiz ichki va tashqi siyosatda hech kimning aralashuvi, tazyiqi va ko'rsatmalarisiz xalq manfaatlarini ko'zlab ish yuritmoqda. Yurtimiz istiqboligina

boy madaniy-ma'naviy merosimizdan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma'naviyat chashmalaridan bahramand bo'lishimiz uchun keng yo'l ochdi. Mustaqillik xalqimizga yurtimizning bebahoyer osti va yer usti boyliklariga chinakamiga egalik qilish, o'z diyorida o'zini erkin his etish, erkin fikrlash, mustaqil tafakkur yuritish imkonini berdi. Milliy mustaqillik tafakkuri mamlakatimizda keng ko'lamli siyosiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda asosiy omil kuch-qudrat bo'lib xizmat qilmoqda.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
  - xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- Vatanparvarlik[9.b.199].

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy mafkurasining asosiy goyalaridan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollari belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir. Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» — ma'nolar majmui) mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi.

Tarbiya hech kechiktirib bo`lmaydigan, bir daqiqa ham surilmaydigan psixologik-pedagogik jihatdan uzluksiz, davomiy jarayondir. Bu jarayonda insonning kelgusi taqdiri, shuningdek inson bilan bevosita bog`liq jamiyat va tuzum taqdiri hal bo`lishi mumkin. Xususan, tarbiyalanganlik bizning mustaqil mamlakatimiz uchun nihoyatda zarur.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o`zbek halqi ma`naviy me`rosining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati xususida so`z yurtib.. “Ulug` bobokalonlarimiz ruhiga bashariyat tarixi va madaniyati xazinasiga katta xissa qo`shgan ulug` ajdodlarimizga, ular qoldirgan ulkan merosga munosib bo`lish istagi jamiyatimiz a`zolari orasida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongida mustahkam joy olishi – bu yangi zamonning yangi xususiyatidir”[10.b.9] deb uqtiradi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`lim-tarbiya tizimlari faoliyatini tubdan isloh qilish dolzarb masala ekanligi haqida shunday yozadi: “...Bog`chalardan tortib oliy o`quv yurtlarigacha o`qitishga muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog`i lozim. Bu esa, o`z navbatida darsliklar va o`quv qo`llanmalarni milliy ma`naviyat nuqtai nazaridan yangitdan qarab chiqishni taqozo etadi.” Bu dono fikrni tub mohiyatini tarbiya ishlari maktabgacha ta`lim muassasasidan boshlab rivojlantirilmog`i kerak, degan yo`llanmani tashkil etadi. Zotan, xalqimizda “Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi” degan hikmat bor. Prezidentimizning yukoridagi so`zlari mag`zida xuddi shu falsafiy hikmat borki, maktabgacha ta`lim muassasalarini, ayniqsa, ularning tarbiya yo`nalishlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tubdan isloh qilish kerak, yangicha, mustaqillik ruxiga monand, milliy tarbiya an`analari asosiga qurilgan yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish kechiktirib bo`lmaydigan dolzarb muammodir. Shu muammolarni fan sohalari buyicha ajratib olib, bir ilmiy tizim va tartibga solish va ularni alohida-alohida tadqiq etish nihoyatda zarurdir. Shuningdek, bu ishlarning ommaviy



nashrlarini chop etish, ularni respublikamiz maktabgacha ta`lim muassasalarini tarbiyachi xodimlariga yo`llanma va qo`llanma sifatida o`sha muassasadagi tarbiya jarayonini faollashtirishga samarali xissa qo`shishga yordam beradi. Bu esa tanlangan mavzuni dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot maqsadi:** Kasb- xunar kolleji o`quvchilari va oliy o`quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlar, milliy qadriyatlardan foydalanishning nazariy jihatlarini o`rganishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti:** Kasb- xunar kolleji o`quvchilari va oliy o`quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarni o`rganish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Kasb- xunar kolleji o`quvchilari va oliy o`quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlar, milliy qadriyatlardan foydalanishning nazariy jihatlarini o`rganishni mazmuni, shakl va metodlari

**Tadqiqot vazifalari:**

- Kasb- xunar kolleji o`quvchilari va oliy o`quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarpedagogik muammo va ijtimoiy zarurat ekanligini aniqlash;

- Milliy qadriyatlar, tarixiy va ilmiy manbalari, xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish va kasb- xunar kolleji o`quvchilari va oliy o`quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarni o`rganish;

- Kasb- xunar kolleji o`quvchilari va oliy o`quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarnibugungi holati va imkoniyatlarini tahlil qilish;

- ta`lim jarayonida kasb- xunar kolleji o`quvchilari va oliy o`quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarni mazmuni va mohiyatini yoritish;

**Tadqiqotning ilmiy farazi; agarda**

• Kasb- xunar kolleji o`quvchilari va oliy o`quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlar pedagogik muammo va ijtimoiy zarurat ekanligini aniqlansa;

• Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlarini tizim o'rganilib, undagi farqlar aniqlansa, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqilsa kasb- xunar kollejlari qadriyatlar tizimidagi qarashlardagi nuqsonlarni muvaffaqiyatli hal qilish mumkin bo'ladi.

**Tadqiqotning metodologik asosini** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning oilani mustahkamlashga oid g'oyalari, ma'ruzalari, asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Markaziy Osiyo Qomusiy allomalarining komil inson tarbiyasiga oid fikrlari, barkamol inson shaxsini xislatlarini shakllantirish to'g'risidagi ta'limotlar, odob-axloq to'g'risidagi qarashlar, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish to'g'risidagi ilg'or pedagogik tajribalar va me'yoriy hujjatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqot metodlari:**

- Kuzatish;
- Pedagogik tajriba;
- O'quv tarbiyaviy jarayoniga oid hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish;
- O'quv ishlari va ma'naviy ma'rifiy ishlarning ijodiy faolitini natijalarini o'rganish;
- Suhbat;
- Anketa tarqatish va so'rovnoma o'tkazish;
- Matematik- statistik uslub.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlarini tizimidagi farqlarni pedagogik shart-sharoitlari yaxlit tizim tarzida asoslandi; tarixiy va ilmiy manbalarda kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlarini tizimidagi farqlar o'rganildi; Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlarini tizimidagi farqlar tahlil etildi; Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlarini tizimidagi farqlarni mazmuni, shakl va metodlari va ulardan

samarali foydalanish yo'llari ko'rsatildi, metodlari belgilanib ularning asosiy mezonlar ishlab chiqildi.

### **Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati:**

➤ Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlar to'g'risidagi olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari pedagogika fanining tarbiya nazariyasini boyitishga xizmat qiladi;

➤ nazariy yo'nalishdagi materiallar ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muammoni chuqurroq o'rganishga imkoniyat yaratadi;

➤ tadqiqot natijalaridan kasb- xunar kolleji va ta'lim muassasalarida shu ma'ruzalar o'qishda, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda, mavzuga oid eshittirish va ko'rsatuvlarda foydalanish mumkin;

➤ tadqiqot materiallari va xulosalariga asoslanib o'quvchi va talabalarida milliy g'urur, vatanparvarlik, iymon-e'tiqodlilik kabi sifatlarni shakllantirish;

➤ tadqiqot natijalari va uslubiy tavsiyalardan ota-onalar, yoshlar, o'qituvchilar foydalanishlari mumkin;

### **Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:**

○ Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlar pedagogik muammo va ijtimoiy zarurat ekanligini;

○ tarixiy va ilmiy manbalarda kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarni yoritiligi;

○ Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarni bugungi holati va imkoniyatlari;

○ ta'lim jarayonida kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarni mazmuni va mohiyati;

**Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi:** bitiruv- malakaviy ishi kirish, ikki bob, 4 paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **1. bob. Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalarini tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning nazariy jihatlari**

### **1.1.Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik jixatlari**

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanib, uning asosiy maqsadi-o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko'p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan. Shaxsni xususan, yoshlarni ijtimoiylashuvda, ahloqiy shakllantirishga qaratilgandir. Shuning uchun ham "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi Qarorida milliy va umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida yosh shaxsida yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni tarbiyalashni, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga keng sharoitlar yaratilmoqda. Ularning rivojlanishiga ehtibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning vatanimiz nafaqat Sharq balki, umumjahon tsivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon butun jahon tan olmoqda"[10.b.3]-deb ta'kidlagan edilar. Darhaqiqat, bugungi kunda mustaqil O'zbekistonni jahon hamjamiyatidagi davlatlarning tan olishi, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini tiklanishiga va imkoniyatlarining tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasida to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga yanada kuch baxsh etmoqda. Jahon madaniyatining yanada chuqurroq bilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratilmoqda. Shuning uchun ham xalqimiz orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sadoqat, hurmat kundand-

kunga rivojlanib, mustaqil O'zbekistonning ma'naviy-ahloqiy negizlarini mustahkamlashning kuch qudrati manbaiga aylanib bormoqda. Milliy qadriyatlar asosida xalqimizda adolat, tenglik, ahil qo'shnicilik va insonparvarlikning nozik kurtaklari rivojlantirilmoqda. Milliy an'analarni, urf-odatlarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har kishini kamol to'tirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratish O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadiga aylanib bormoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda O'zbekistonning istiqloli va istiqbolini, buyuk kelajagini umumjahon tsivilizatsiyasiga qo'shayotgan hissasini butun dunyo qadrlamoqda, tan olmoqda. Shuni aytish kerakki, O'zbekiston mustaqilligi qudratli milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga, rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Prezident I. A. Karimov 1992 yili "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asaridayoq mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy negizlaridan biri-umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatlilik ekanligini ta'kidlash bilan birga, uning shaxs kamolotidagi ahamiyatini ham ko'rsatib o'tgan edilar. Keyinchalik bu masala I. A. Karimovning "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tuzish" haqidagi Farmonlarida, Yurtboshimizning "Istiqlol va ma'naviyat", "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz", "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz", "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" kabi asarlarida to'la to'kis o'z aksini topdi[5.b.11].

Prezident I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ma'naviyat sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni ko'rsatish bilan birga "... O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-odat va an'alarini rivojlantirishga va sharoitlarni yanada kengaytirishdan iborat. Shu orqali yurtimizda qaror topgan millatlararo totuvlik va barqarorlikni saqlash, uni ko'z qorachig'iday asrash-har birimizning muqaddas burchimizdir",-deb ta'kidlagan edilar. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xalqimizning milliy va umuminsoniy

qadriyatlarga bo'lgan sadoqatliligi jamiyat va inson oldida turgan maqsad va vazifalar bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu uyg'unlik xalqlar o'rtasidagi milliy urf-odatlarini, an'analarni mustahkamlashda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada inson ongi va tafakkurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, e'tiqod kundan-kunga o'sib, xalqlar, millatlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik rivojlanmoqda. Buning natijasida O'zbekiston dunyoga yuz tutmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar faqatgina bizning Respublikamizdagina emas, balki butun jahonda bir butun, yaxlit holatda har bir inson qalbidan chuqur joy olmoqda. AQSH, Frantsiya, Turkiya, Yaponiya, Koreya, Pokiston kabi 50 dan ortiq mamlakat rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovga yo'llagan hamdardliklarida butun dunyo xalqlarining O'zbekiston bilan birga ekanligi ehtirol etilgan. Bunday hurmat va e'tibor negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda diplomatiya, o'ta madaniyat, katta bilim, donishmandlik, kishilarni ishonтира olish qobiliyatlari bilan kelajagi buyuk davlatni barpo etishdagi samarali ishlariga bo'lgan ishonch va e'tiqod ifodalangan. Bu birinchidan, ikkinchidan I. A. Karimov ta'limoti tufayli ulug' bobomiz Amir Temur dovrug'ini qaytadan tiklash, butun dunyoga tarqatish, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Toshkent, Marg'ilon shaharlari to'ylarining dunyo miqyosida nishonlanishi, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy hazratlarining jahon madaniyatiga qo'shgan hissalarini e'zozlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sadoqatining yorqin timsoliga aylandi.

Darhaqiqat, qadim-qadimdan o'zbek millati jahon tsivilizatsiyasida o'zining munosib o'rnini egallashida umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat bilan munosabatda bo'lgan. Har bir xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini chuqur o'rgangan. Shu bilan birga boshqa millatlar, davlatlar, dinlar va

tsivilizatsiyalarning o'ziga xos qadriyatlari va ijobiy tajribalaridan foydalanish natijasida jahon taraqqiyotida munosib o'rin egallab kelgan.

Jahon ma'naviy madaniyatining xilma-xil jihatlari uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib bu davrda yashab ijod qilgan sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, al-Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yassaviy kabi allomalar, Alisher Navoiy, Xusayn Bayqaro, Zahiriddin Muxammad Bobur kabi donishmand mutafakkirlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning chuqur ildizlari sifatida xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashda va rivojlantirishda muhim o'rin tutgan va tutib kelmoqda. Shunday ekan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar qadimiy va tarixiy bo'lib, uning mazmunida jinsidan qathiy nazar, o'zga millat xalqlariga hurmat bilan qarash dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, insoniyatning tinchligi va totuvligini ta'minlash, har bir millat xalqlarining o'z huquqlarini o'zi belgilash, o'ziga mustaqil bo'lib, o'ziga xos davlat tuzib yashash, o'z tili, dini, urf-odatlarini o'ziga xos milliy qadriyatlari bilan bo'lish natijasida inson kamolotiga erishish, shaxsni ahloqiy shakllantirish kabi yo'nalishlar muhim o'rin egallagan.

Ta'limiy qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, uning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek, o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar majmuasidir.

Ta'limiy qadriyat - ta'limning milliy yo'nalganligi, uning milliy tarix bilan uyg'unligi, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitish, ta'limning milliy rivojlanishning muhim vositasi ekani, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatini hurmat qilishdan iboratdir.

O'zbekistonda ta'limiy qadriyatlar sohasida tadqiqot olib borgan olim Sh.Mardonov ta'limiy qadriyatlarning o'ziga xosligiga ko'ra, bir necha guruhga tasnif etadi:

1) global konseptual-ta'lim qadriyatlari;

- 2) aniq ta'limiy qadriyatlar;
- 3) ta'limning individual-shaxsiy xarakterdagi qadriyatlari;
- 4) innovatsion pedagogik texnologiyalar - umumbashariy (global)-konseptual ta'limiy qadriyatlar;
- 5) shaxsni shakllantirish;
- 6) ta'limning demokratik va gumanitar yo'nalganligi;
- 7) insonparvarlik, shaxs dunyoqarashini shakllantirish.

Ta'limiy qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra ma'naviy-axloqiy, kasbiy hamda ijtimoiy qadriyatlar sifatida guruhlanadi hamda umummadaniy, ma'naviy-axloqiy, estetik, intellektual va ijodiy yo'nalishga ega bo'ladi.

Ta'limiy qadriyatlar ahamiyatlilik xususiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1) konseptual-yo'naltirilgan;
- 2) bazali (manbali), o'quv-rejali;
- 3) shaxsiy qadriyatli va kasbiy-shaxsiy;
- 4) nazariy-pedagogik;
- 5) nazariy-amaliy va prosessual-pedagogik, innovasion-pedagogik texnologiyalar;
- 6) ilg'or axborot texnologiyalari;
- 7) ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanishiga alohida e'tibor berish;
- 8) o'z-o'zini takomillashtirish.

Ta'limning shaxsiy-ahamiyatli qadriyatlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- 1) ijtimoiy-g'oyaviy, insonparvar, estetik dunyoqarashning shakllanishi;
- 2) yuksak ma'naviyatga ega bo'lish;
- 3) ijtimoiy-kommunikativ faollik, har tomonlama rivojlanish, umummadaniy, kasbiy, intellektual, ijodiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, ekologik va boshqalar;



4) o'z-o'zini tarbiyalash, rivojlantirish, shaxsiy, kasb-hunar yo'nalishini takomillashtirish, «Men» konsepsiyasining shakllanishi.

Ta'limning konseptual-yo'naltirilgan qadriyatlari:

1) shaxs, uning shakllanishi va har tomonlama, to'laqonli rivojlanishi;

2) boy dunyoqarashga ega bo'lish;

3) ta'limni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, uning milliy yo'nalganligi (o'ziga xos madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy an'analar, milliy va umuminsoniy g'oyalar; fan, texnika, texnologiya va madaniyat, shuningdek, milliy va jahon pedagogikasining ilg'or yutuqlari).

Ta'limning bazali (manbali) qadriyatlari:

1) ta'limning hozirgi zamon metodologiyasi;

2) milliy va umuminsoniy madaniyat;

3) Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari;

4) xalq pedagogikasi g'oyalari;

5) milliy va jahon pedagogikasi;

6) shaxsga yo'naltirilgan pedagogika fani, pedagogik jarayon psixologiyasi.

Ta'limning kasbiy-shaxsin qadriyatlari:

1) ijtimoiy-shaxsiy daraja - sababli-qadriyatli omil;

2) pedagogik faoliyatga nisbatan emosional munosabat (bo'lajak, hozirgi);

3) kasb-hunar ta'limining shaxsiy mazmuni va ijtimoiy ahamiyatga ega ko'rsatmalar: unga qiziqish, talabgorlik;

4) pedagogik tashabbus, qatilylik, javobgarlik, intizom;

5) pedagog shaxsining o'z-o'zini qadrlashi, uning tan olinishi (o'quv va ijtimoiy faoliyatga individual yondasha olish» sharti bilan);

6) individuallik, ijodkorlik layoqatiga egalik, shaxsiy qiziqishlari, qobiliyati hamda hayotiy ehtiyojlari;

7)biror bir faoliyatda o'zini namoyon qilish, anglash, kasbiy va shaxsiy faoliyatni faollashtirish, erkin fikrlash imkoniyatiga egalik;

8)o'ziga baho berishda «Men» konsepsiyasidan foydalanish.

Nazariy-pedagogik qadriyatlar:

1)pedagogik ta'limning yangi yo'nalishlari;

2)ta'limning modifikasiyalashtirilgan, yangilangan maqsad va vazifalari;

3)zamonaviy pedagogik kadrlarga qo'yiladigan talablar;

4)pedagogik kadrlarni tayyorlash mazmunining yanada takomillashtirilishi;

5)kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiluvchi yangi talablar;

6)zamonaviy ta'limning nazariy-pedagogik qonuniyatlari;

7)nazariy ta'limning amaliy yo'nalganligi;

8)idrok etish, mustaqil ta'lim olish faoliyati, uni faol-lashtirish;

9)intellektual-ijodiy va ilmiy tadqiqotchilik ishlari, o'qitish va rivojlanishdagi nisbatlar, zamonaviy o'quvchi shaxsini shakllantirish va tarbiyalash;

10) innovatsion ta'lim masalalari, ijodiy analitik va muqobil fikrlash, taxmin qilish, kutish (ijtimoiy-kasbiy), shaxsiy fikrlarni himoya qilish, muhim qarorlarga kelish<sup>14</sup>.

Tarbiyaviy qadriyatlar deganda esa, ijobiy tarzdagi obyektiv-ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va ma'naviy voqalik tushuniladi. Tarbiyaviy qadriyatlar o'zida ota-onalar va pedagoglar tarbiyalanuvchi shaxsida tarkib toptirishni xohlaydigan, fuqarolik jamiyati uchun foydali, mazkur ijtimoiy sharoitda muhim va zaruriy ahamiyat kasb etuvchi fazilat, sifat, xohish-istak, intilish kabilarni aks ettiradi.

Tarbiyaviy qadriyatlar to'rt asosiy o'zaro uyg'un manbaiga ega:

1) genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy;

2)tabiiy;

3)<sup>14</sup>sosiumga doir;

4)ijtimoiy-kosmik.

Quyida mazkur tarbiyaviy qadriyat manbalariga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz:

1. Genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy tarbiyaviy qadriyat manbalari. Genetik tarbiyaviy qadriyat manbalariga instinkt, psixik jarayonlar, individning energetik rusurlari kabi tabiiy-genetik fenomenlar kiradi. Aynan instinkt asosida shaxs xulqida iroda, sog'lom turmush tarzi, ehtiyotkorlik kabi tarbiyaviy qadriyatlar shakllanadi. Muhim ahamiyatga ega organizmning sog'lomligi, uning barcha intellektual va jismoniy mohiyatga ega kuchlarni rivojlantirishga potensial imkoniyati tarbiyaviy qadriyati psixosomatik jarayonlar natijasida paydo bo'ladi. Psixosomatik jarayonlar o'z navbatida individning jismoniy sog'lomligi, erki, irodasi, maqsadga yo'nalganligi, mehnatga ishtiyoqi, o'ziga ishonch kabi individual-shaxsiy sifatlari haqida gapirishga imkon beradi. Barcha mazkur energetik-psixosomatik hodisalar mustiqillik, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini namoyon etish, ijtimoiy faollik kabi yuksak amaliy faoliyat bilan bog'liq qadriyatlarni yuzaga keltiradi.

2. Tarbiyaviy qadriyatlarning yana bir asosiy manbai – bu tabiat dunyosidir. Inson tabiatning ajralmas qismi va uning tabiat bilan o'zaro munosabati ko'p jihatdan har bir individning insoniyligi, yaxlitligini belgilab beradi. Tabiat bilan me'yoriy o'zaro harakat insonda qator tarbiyaviy qadriyatli munosabatni yuzaga keltiradi. Eng avvalo, tabiat inson uchun tarbiyaviy, jismoniy-sog'lomlashtiruvchi va ma'naviy qadriyat sifatida aks etadi. Tabiatdagi har bir narsa-hodisa individni tarbiyalaydi.

Tarbiyaviy qadriyatlarning tabiiy manbasi shaxsda tabiat, inson va jamiyatga nisbatan muhim qadriyatli munosabatni shakllantiradi. Tabiat insonda moddiy borliq, uning paydo bo'lishi, moddiy borliq shakl va qonunlari birligi haqidagi falsafiy dunyoqarashni hosil qiladi. Insonda tabiatga tarbiya-viy-qadriyatli, ilmiy-bilishga doir munosabatni rivojlantirish unda ilmiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash; real moddiy hayot harakat qonunlarini bilish; moddiy hayot mohiyatini

falsafiy jixatdan tushunib yetish; tabiat qonunlari bilan bogliqlikda tabiiy boyliklarni o'zlashtirishdagi amaliy harakat-ga intilishni rag'batlaydi.

Bundan tashqari tabiat tarbiyaviy qadriyat sifatida obyektiv go'zallik hodisasidir. Tabiat shaxsda estetiklikni, badiiy-estetik ongini; dunyo go'zalligini idrok etish va yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

3. Tarbiyaviy qadriyatlar manbai sifatida sosium xam alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, inson nafaqat tarbiyaviy qadriyatlarni yaratadi, balki uning o'zi ham mohiyatiga ko'ra tabiiy va muhim tarbiyaviy qadriyatdir. Katta avlod vakillari, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglar, davlat va jamoat arboblari, fan va san'at namoyondalari o'zlarida tarbiyalanuvchilarga yorqin va kuchli ta'sir etuvchi shaxs fazilatlarini va xususiyatlarini, uning faoliyati va xulq-atvori namunasini aks ettiradi. Har qanday ma'naviy yetuk, keng tafakkurli, ijodkor, yaratuvchan, mas'uliyatli inson o'zida ma'naviy ustoz maqomini ifoda etadi.

4. Nihoyat, yana bir muxim tarbiyaviy qadriyat sifatida Kosmos: insonning u xakidagi o'y-fikrlari, tasavvurlari, farazlari, afsonalari aks etadi. Chunki Kosmos insonga kosmik fazoga xayolan intilishni, uni o'zlashtirish ishtiyoqini, inson va insoniyatning abadiy mavjudligi haqidagi ta'limotni, astrofizik va astronavtik apparatlarni loyihalashni taqdim etdi. Eng asosiysi, Kosmos insonga hayot mazmunini anglab yetishga katta ta'sir o'tkazdi<sup>15</sup>.

Yuqorida bayon etilgan manbalar tahlilidan ko'rinadiki, tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi; mazkur qadriyatlarning barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmasligi; tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi. Ana shu bilan bog'liqlikda tarbiyaviy qadriyatlar absolyut - shu jumladan, genetik manbadan yuzaga keluvchi umuminsoniy qadriyatlar; vaqt bilan bog'liq (vaqtinchalik) -aniq-tarixiy; barqaror - mental, etnik; individual-shaxsiy kabi turlarga bo'linadi.

Absolyut umuminsoniy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- diniy-ma'naviy;
- barcha mohiyat-e'tiborga molik kuch va individual qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beruvchi;
- ichki axloqiy erkinlik, burch va majburiyatli ongni tarkib toptirishga yordam beruvchi;
- vijdon, sevgi, ishonch, burch, ziyolilik kabi ma'naviy poydevorga ega axloqiy individuallik va jamoaviylikni shakllantiruvchi;
- intellektual mulk va jismoniy mehnatga doir qobiliyatni rivojlantiruvchi;
- dunyoni axloqiy, estetik va ekologik idrok etish va anglashga imkon beruvchi.

Aniq tarixiy shart-sharoit va vaziyat bilan bog'liqlikda mavjud bo'luvchi vaqt bilan bog'liq tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- mafkuraviy va siyosiy qarashlar;
- huquqiy va axloqiy ong va me'yor tizimi;
- fuqarolik ongi, xulq-atvori va fazilati darajasi;
- hayot va amaliy yo'nalganlik istiqboli;
- moda, etiketga yo'nalganlik;
- kasbiy yo'nalishlar.

Barqaror meital-etnik tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- yaxlit milliy tarixiy-tajriba, ishlab chiqarishdagi o'ziga xosliklar, milliy madaniyat, geografik shart-sharoitlar, xalqaro vaziyat asosida yuzaga keluvchi milliy xarakter xususiyatlari;

- an'analar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy san'ati namunalari, obidalar, yodgorliklar;

- ta'limiy an'analar (ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalari);
- oilaviy an'analar va munosabatlardagi o'ziga xosliklar;
- xalq hunarmandchiligi;

- milliy badiiy tasviriy san'at, musiqa, teatr, kinomatografiya, poetik ijod;

- diniy qarash va e'tiqoddagi o'ziga xoslik.

Absolyut ijtimoiy ahamiyatga ega individual-shaxsiy qadriyatlarga esa quyidagilar kiradi:

-iroda erkinligi;

- mustaqil fikrlash, xatti-harakatlardagi mustaqillik;

- qonunlarga rioya etish va qonunlarni takomillashtirishga qobiliyatlilik;

- adolatparvarlik;

- ziyraklik;

-g'amxo'rlik;

- go'zallik va ezgulikka ishonch;

intizomlilik, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish;

- o'zligini saqlab qolish, ichki insoniy borlig'ini anglash.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladki, qadriyatli tasavvurlar

tizimi asrlar davomida shakllangan tabiat, jamiyat va madaniyatda aks etgan vokelikka ongli munosabat natijasida yuzaga keluvchi qarashlar yig'indisidir. Mazkur tizimning tarsib toptirilishi bo'lajak pedagoglarda qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

O'z navbatida qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirishda milliy pedagogikamizning tarixiy-madaniy manbalari -xalq og'zaki ijodi, diniy-falsafiy ta'limotlar, Sharq mutafak-kirlarining asarlari, zamonaviy badiiy-ma'rifiy asarlar muxim ahamiyatga ega. Demak, pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirishda pedagogika tarixi fani katta imkoniyatga ega. Mazkur fan imkoniyatlaridan kelib chiqib, talabalarda ijtimoiy-

siyosiy, shaxsiy, kasbiy-pedagogik, intellektual, axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq tasavvurlarni shakllantirish o'zida muhim pedagogik muammoni aks ettiradi.

## **1.2. Pedagogik kadriyatlarning kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalarining ijtimoiylashuvidagi o'rni va ahamiyati**

XIX asr o'rtasiga qadar falsafada «borliq» va «qadriyat» tushunchalari bir-biridan ajratilmagan edi. Aksiologiya (yunoncha axia - qadriyat va logos ta'limot so'zlaridan) mustaqil fan sifatida borliq tushunchasi ikki komponentga ajralgan paytda yuzaga keladi: bir narsaning mavjud bo'lishi va uning mohiyati. Boshqacha qilib aytganda, ob'ekt va sub'ektning o'zaro ta'siri paytda sub'ekt uchun ob'ektda shunday bir narsa ayon bo'ladiki, uni ob'ektning mavjud bo'lishining o'zigagina bog'lab bo'lmaydi, ya'ni u go'yo ushbu mavjudlik chegarasidan tashqarida turadi va u uchun muayyan ahamiyatga ega bo'ladi. Ob'ekt va sub'ektning o'zaro ta'sirini ana shunday tushunish qadriyat tushunchasini hozirgi zamon falsafasining kategorial apparatining elementi sifatida shakllanishi uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi.

Qadriyatlar - voqelikdagi muayyan hodisalarning qimmatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo'lib, u mazkur hodisaning sub'ekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo'ladi.

Qadriyatlarning tabiati haqida so'z ketar ekan, falsafiy adabiyotlarda bir-biri bilan raqobat qiluvchi to'rtta asosiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi yondashuvga ko'ra, qadriyatlar dunyosi alohida, mustaqil, sub'ektga ham, ob'ektga ham nisbat berib bo'lmaydigan olam sifatida talqin etiladi. Neokantianlikning klassiklaridan biri G.Rikkert yozganidek, «qadriyatlar sub'ekt va ob'ektdan tashqarida joylashgan butunlay mustaqil saltanatni tashkil etadi».[24.b.33.]

Ikkinchi yondashuvga ko'ra esa, qadriyaviy xususiyatlar narsalarning o'zida mavjuddir. Boshqacha qilib aytganda qadriyatlar manbai tashqi voqelik xususiyatlarida ko'rinadi. Ana shu bilan bog'liq ravishda qadriyatlar narsalarning

muayyan ehtiyojlarni qondira olishga bo'lgan ob'ektiv qobiliyati sifatida qaraladi. Uchinchi yondashuvning mohiyati shundan iboratki, tabiatda qadriyatlar mustaqil mavjud emas. U yoki bu narsalar faqat sub'ektning baholash faoliyati tufayli o'z qadr-qimmatiga ega bo'ladi. Bunga misol sifatida g'arb estetikasi antologiyalaridan birining tuzuvchisi bo'lgan M.Reyderning fikrini keltirish mumkin: «Haqiqatlarga qarama-qarshi o'laroq, qadriyatlar shunchaki tasavvur qilinadi xolos... Faktlar kuzatuvchilar guruhi uchun bir xil xususiyatga ega bo'lsa, qadriyat har bir baholovchining sub'ektiv fikri bilan bog'liq ravishda turli tabiatga ega bo'ladi»[29.b.167]. Bir kishi uchun qimmatli bo'lgan narsa boshqa kishi uchun unday bo'lib ko'rinmaydi. To'rtinchi yondashuvda esa oldingi yondashuvlarning o'ziga xos sintezi amalga oshiriladi va qadriyatlarning ikki yoqlama (ob'ektli va sub'ektli) tabiatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Ilmiy-pedagogik va falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarni umumlashtirgan tarzda quyidagi to'qqiz guruhga tasnif etilgan:

1. Ma'naviy qadriyatlar shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolar hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek xalqining milliy an'analari, bayramlari, udum va odatlari,, O'zbekistonda o'tgan mutafakkirlarning ma'naviy merosi, yozma asarlar, rivoyat va afsonalar, muqaddas joylar, tarixiy yodgorliklar, musiqa va qo'shiqlari, cholg'u asboblari, o'yinlari, dehqonchilik va xunarmandchilik kabilar ma'naviy qadriyatlarning asosini tashkil etadi. Ular kishilarning bir-birlariga, vatanga, oilasiga bo'lgan munosabatidagi axloq xulq-atvorida, odob va xatti-harakatida namoyonbo'ladi.

2. Milliy qadriyatlar - millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar negizida «millat», «o'zbek»



degan soʻzlar oʻz ifodasini topgan. «Millat» soʻzi arab tilida quyidagi uch maʼnoni anglatadi. Birinchidan-mazhab; ikkinchi-ummat; uchinchi-xalq, qavm. Millat soʻzi Qurʼoni Karimda ham qoʻllanilgan. Qurʼonda har bir millat vakili oʻzmilliy qadriyatlarini rivojlantirishi sababli oʻz millatidan, qavmidan kechib boshqa millatga oʻtib olish gunoh deb taʼriflagan. Yevropa adabiyotida qoʻllaniladigan «Naasiya» soʻzi qabila, xalq degan maʼnoni bildiradi, binobarin, bu ikki tushunchada ham muayyan etnik birlikning oʻziga xosligini bildiruvchi maʼno yotadi.

Milliy qadriyatlar - millatga mansub boʻlgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri xisoblanadi. Milliy qadriyatlar - oʻz millatidan, oʻz yurtidan faxrlanish, oʻzbek davlati fuqarosi ekanligidan gʻururlanish kabilardir.

3. Siyosiy qadriyatlar demokratiya yoki siyosiy jarayongina boʻlib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, anʼanalari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlarini ifoda etadi. Siyosiy kadriyatlar dunyodagi barcha millat va dinga mansub shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga xalqaro demokratik talablariga javob beradi. Unda inson huquqi, shaʼni, or-nomusi va ximoyasiga qaratilgan barcha tamoyillar kafolatlanadi. Mamlakatimiz xavfsizligi, barqaror-lik va millatlararo hamjihatlikni saqlash, kelajak avlodlarga obod va ozod Vatanni meros qoldirish masʼuliyatini oshiradi. Ichki va tashqi siyosiy muvozanatini saqlaydi. Siyosiy qadriyatlar insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va maʼnaviy boyliklarni asrashda va mustahkamlashda hamda ulardan foydalanishda imkoniyatlar yaratadi.

4. Huquqiy qadriyatlar - bu jamiyat va madaniyat, davlat va huquq yoʻnalishlarini oʻzida mujassam etib, har bir kishida huquqiy bilim, tafakkur va dunyoqarashni shakllantiradi. Huquqiy qadriyatlar - umuminsoniy kadriyatlar va jahon andozalari, huquqiy madaniyat boʻyicha sharq falsafasi, oʻzbek milliy mafkurasi, tarixiy-huquqiy meros va tajriba asosida kamol topadi. Huquqiy qadriyatlar eng avvalo umuminsoniy qadriyat-larga, umumjahon sivilizasiyasiga,

bu sohada boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, xalqaro huquqning me'yorlariga asoslanadi. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, barcha fukarolarning teng huquqligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustunligi - huquqny qadriyatlar hisoblanadi. Huquqiy qadriyatlar O'zbekistonda Konstitusiya va qonunlar bilangina emas, balki xalqning o'z ongi, uning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va huquqiy tajribasi, mehr-shavqati bilan mustahkamlanadi.

5. Mehnat qadriyatlari - tabiat bilan uyg'unlikda yashash, undan ibrat olish, uning go'zalliklaridan zavqlanish va tabiat qo'ynida mehnat qilish kabilarni tashkil etadi. Mehnat qadriyatlari - mehnat madaniyatining barcha elementlarini qamrab oladi. Har bir yosh avlod hayotga qadam qo'yar ekan, o'z ajdodlaridan faqat mehnat vositalarigina emas, balki mehnat madaniyatini ham meros qilib oladi. Shuning uchun ham mehnat qadriyatlari o'quvchilarning qobiliyatlari, imkoniyatlari va haqiqiy kuchlarini namoyon etish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Mehnat qadriyatlarida hunarmandchilik, kasb-hunar egallash muhim o'rin tutadi. Bunda zardo'zlik, yo'rmado'zlik, bo'zchilik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, gilamchilik, kashtado'zlik, muqovasozlik, naqqoshlik, pichoqchilik, o'ymakorlik kabi hunarlarni o'rganish -mehnat qadriyatlarining negizini tashkil etadi.

6. Turmush qadriyatlari - tarixan muayyan ijtimoiy munosabatlar uchun xos bo'lgan hayot va faoliyat shakllari tizimi bo'lib, ular bevosita hayot sharoitlarini, o'ziga xos xususiyatlarni ifodalaydi. Odamlarning xulq-atvori, yurish-turishi, muomalasi va tafakkur tarzi orqali namoyon bo'ladi. Turmush madaniyatining ma'naviy-ahloqiy va huquqiy rivojlanishini qamrab oladi. Turmush, xulq-atvor madaniyati, fuqarolarning xuquq va erkinliklari jamiyat a'zolarining ijtimoiy-huquqiy faolligi kabilar turmush qadriyatlari asosida namoyon bo'ladi.

7. Diniy qadriyatlar - yolg'iz diniy qoidalar, ko'rsatmalar, tamoyillaridan iborat bo'libgina qolmay, u kishilar o'rtasidagi ma'naviy-axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa munosabatlarning ham ifodasidir. Islom dini jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, kishilarni imon-e'tiqodli bo'lib yashashga da'vat etadi. Chunki, imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu xalqning or-nomusini himoya qiladi. Halol va pok yashashni o'zining burchi deb biladi. Diniy qadriyatlarga suyanish, musulmonchilikning asl tamoyil larini rivojlantirish, ularni o'quvchi yoshlar ongiga singdirish - shaxs kamolotida, uning dunyoqarashi, axloqi, faoliyati mazmunini belgilashda asosiy mezonlardan hisoblanadi. Diniy qadriyatlar xalqimiz turmush tarzi va hayotining negizini tashkil etadi. Diniy qadriyatlar barcha millat kishilari uchun muqaddas boylik bo'lib, ularni ezgulikka, poklikka da'vat etadi. Diniy qadriyatlar nafaqat oxiratda, balki bu dunyoda ham baxt-saodatga erishish mumkinligini e'tirof etadi.

8. Umummadaniy qadriyatlar tufayli xiyobonlar, sayilgoxlar, o'yingohlar, tomoshagohlar, san'at saroylari, ziyoratgohlar, maktablar, madrasalar, kutubxonalar, madaniyat markazlari kabi muassasalarda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan nufuzli tadbirlar, turli millat xalqlarini birlashtirgan anjumanlar o'tkaziladi. Umummadaniy qadriyatlarga ega bo'lgan har bir millat do'st, mehmon, turist sifatida madaniy-ma'naviy yodgorliklarga o'z hurmatini izhor qiladi. Xalqaro munosabatlarda qatiyatlilik, donolik, uzoqni ko'ra bilish, xorijda ishlayotgan, ta'lim olayotgan O'zbekiston vakillarining yurtimiz, xalqimiz sha'niga-shan, shuhratiga-shuhrat qo'shishi umummadaniylikning amaliy namoyon bo'lishidir.

9. Umuminsoniy qadriyatlar bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatini, merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analarini o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning sub'ektidir. Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni axloqiy shakllantirishda millatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik,

yuksak insoniylik, mehr-oqibat, imon-e'tiqod, or-nomus, insof-diyonat kabi fazilatlardan foydalanish, shuningdek, «ota-ona, qarindoshurug'larning hurmatini joyiga qo'yish, oilaning muqaddasligi tuyg'ularining barkamol bo'lishiga erishish, o'zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotganlar manfaatlarini hisobga olish» muhim ahamiyatga ega[33.b.32.].

10. Badiiy qadriyatlar - san'at durdonalari bo'lib, insonda estetik hissiyotni uyg'otadi, uni estetik jihatdan tarbiyalaydi. Badiiy qadriyat - mana shu qadriyat mezonlari talablariga javob beruvchi san'at asari, uning asosida go'zallik o'zining ko'plab ko'rinishlarida asosiy mezonlar belgisi hisoblanib, unda estetik va badiiy qadriyatlar ma'lum nisbatlarda bo'ladi. Badiiy qadriyatlarning mazmunida u yoki bu san'at tili yordamida estetikmazmun va badiiy obrazda berilgan «go'zallik qonunlari bo'yicha» aks ettirilgan va qayta yaratilgan borliq aks etadi .

«Qadriyat» tushunchasiga berilgan ta'rif va tasniflarga asoslangan holda, «pedagogik qadriyatlar» atamasini quyidagicha izohlash mumkin: «Pedagogik qadriyatlar - bu pedagogik faoliyatning shunday o'ziga xosligiki, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini mo'ljalga olishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdiqini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqqisodiy aloqalarga bog'liq».

V.A.Slastyoninning fikriga ko'ra, «Pedagogik faoliyatga doir qadriyatlarining interiorizatsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatiga tamal toshini qo'yadi» .

O'qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorliqsa, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimini hosil qiladi.

Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihati alohida tadqiq etilgan:

- o'qituvchiga uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga qaratilgan uning ijtimoiy va kasbiy faolligida yo'l ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos jihatlari;

- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar va ta'lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog'lovchi bo'g'in bo'lib keluvchi bilish-faoliyat tizimi.

Pedagogik aksiologiyaga oid adabiyotlarda pedagogik qadriyatlarning xilma-xil tasniflari mavjuddir. Jumladan, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o'quvchilarni va ota-onalarning ta'lim muassasasini tanlash erkinligi;

2) intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o'quvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi sifatida;

3) axloqiy qadriyatlar: o'quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning subyekti bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish;

4) kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o'qituvchi-tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas'uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli- tadqiqotchilik, innovasion faoliyati, kommunikativ qobiliyati, o'quvchilar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat.

V.A.Slastenin esa, kasbiy yo'nalganlik tizimiga asoslangan holda, pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) maqsadli qadriyatlar: shaxsiy Men va kasbiy Men yig'indisidagi bo'lg'usi o'qituvchining shaxsiy konsepsiyasi. Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidirar ekan, o'zini va o'zgalarni rivojlantirish yo'lidagi o'z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta'lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar subyektlashgan holda pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta'limi asosini tashkil etadi. Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o'zida aks ettiradi: o'qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatligi, jamiyat olidagi yuksak mas'uliyat, o'zini namoyon qilish, bolalarga mehr va boshqalar. Bunday qadriyatlar ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxsining, talabalar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topadi;

2) vositali qadriyatlar: pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuisiya tizimi. Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo'lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o'sish va b.);

3) munosabatli qadriyatlar: pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabati, kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat;

4) sifat qadriyatlari: shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatleri.

5) bilishga oid qadriyatlar. O'qituvchilik kasbining bilishga doir qadriyatlari nazariy darajada o'quvchilarning o'qituvchilik kasbiga doir qadriyatlarni e'tirof etishi va qabul qilishi bilan bog'liq.

N.M.Egamberdiyeva esa, talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan pedagogik qadriyatlarni ikkita katta guruhga tasnif etishni taklif etadi: ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar.

Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo'luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta'lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar, qoidalar, an'analar majmuidir.

Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida yuzaga chiqib, ularda o'qituvchi shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlari aks etadi. Bu xususiyatlar majmui uning qadriyatlar yo'nalishi tizimini tashkil etadi. Qadriyatlar yo'nalishi sifatidagi aksiologik «Men» nafaqat kognitiv(bilishga doir) tarkibiy qismlarni, balki insonning ichki yo'nalganligida muhim o'rin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi. Unda ham ijtimoiy-pedagogik, ham pedagogik qadriyat-larning individual-shaxsiy tizimiga asos bo'lib xizmat qiluvchi kasbiy-jamoaviy qadriyatlar o'rin olgan.

Shuningdek, o'z navbatida pedagogik qadriyatlarni bunday xilma-xilligi ularni umumiy tarzda ta'limiy va tarbiyaviy qadriyatlarga ajratishga imkon beradi.

### **Bob bo'yicha xulosa**

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, aksiologik muammolarga doir nazariy manbalardagi qadriyat tushunchasining mohiyatini tahlil etish asosida pedagogik aksiologiya qadriyat tushunchasiga shaxs va jamiyat faoliyatida ideal namuna va yo'nalishlarni aks ettiruvchi individual va ijtimoiy ongni tashkil etuvchi maxsus ta'lim sifatida qaraydi. Alohida shaxs yoki jamiyat yaxlitlikda qadriyatlarni uzatuvchisi sifatida qaraladi, nihoyasi esa, insonning xulq-atvori va xatti-harakatini rag'batlaydi. Xulq-atvor va xatti-harakatlarning tavsifi shaxsning atrof-muhitga, o'z-o'ziga munosabati haqida guvohlik beradi.

Falsafadan farqli ravishda pedagogik aksiologiya «qadriyat» va ularni aksiologik ong, munosabat, xulq-atvor deb nomlash orqali «aksiologik» tushunchalarga alohida-alohida qaraydi.

Uni tashkil etish va boshqarishga qadriyatli yondashuvning zaruriyat ekanligidan kelib chiqib, uzluksiz ta'lim maqsadlarining o'zgarishi pedagogik aksiologiyaning muhim vazifalari sifatida quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- qadriyatlar nazariyasi nuqtai nazaridan pedagogika nazariyasi va ta'lim amaliyotining tarixiy rivojini tahlil etish;

- uning aksiologik yo'nalganligini aks ettiruvchi ta'limning aksiologik asoslarini aniqlash;

- milliy ta'lim mazmuni va rivojlanish strategiyasini aniqlashga doir aksiologik yondashuvni ishlab chiqish.

- mazmunli muvofiqlik (ta'limning mazmunli va protsessual jihatlarini birlashtirganligi sababli, intellektual tashabbusni rag'batlantiradi) - fikriy jarayon, obyektни aktuallashtirish, aniq dalil va isbotlarni belgilash, axborotni tanqidiy mushohada etish, ma'no-mazmunini tushunish, shaxsiy fikrning o'sishi;

- baholovchi - pedagogik jarayon ishtirokchilarida borliq va ma'naviy hodisalarni adekvat baholashni rivojlantirishni aks ettiradi;

- yo'naltirish funktsiyasi - «qadriyatlar ierarxiyasi»ning ma'lum parametrlari asosida shaxsiy, kasbiy tavsifning muhim qoidalarini aniqlash imkoniyatlari bilan bog'liq;

- me'yoriy (normativli) - pedagog va tarbiyachining aksiosferasining tarkibiy qismlari, o'zida qadriyat tarzini aks ettiruvchi ularning o'zaro munosabatlari tizimini «qonuniylashtiradi»;

- boshqaruvchilik - insonparvar mazmunga ega milliy va umuminsoniy qadriyatlar oqimidagi tizim subyektlari, ta'lim tizimi rivojlanishini yo'naltiradi, ta'lim sohasidagi o'zaro zaruriy harakatni hosil qiladi;

- nazorat qiluvchi - madaniy-tarixiylik kontekstida qadriyatning rivoji,



shaxsda qadriyatga yo'nalغانlikni shakllantirish imkonini beradi.

## **2 BOB. Kasb- xunar kolleji o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari qadriyatlari tizimidagi farqlarni o'ziga xos xususiyatlari**

### **2.1. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning vositalari**

Aholini, xususan, yoshlar, yoshlarni g'oyaviy tarbiyalashning, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning usullari ikki guruhga bo'linadi: uning birinchi guruhi-ilmiy usullar deb yuritiladi. G'oyaviy tarbiyaning, yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishning ilmiy usullariga bizning fikrimizcha quyidagi usullar kiradi: 1) tarixiylik va mantiqiylik; 2) mavhumlik va konkretlik; 3) ko'rgazmalilik va namunaviylik.

G'oyaviy tarbiyani, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ikkinchi guruh usullariga amaliy va 'ragmantik usullar deb yuritiladi. Bizning fikrimizcha amaliy, 'ragmatik usullar quyidagi usullardan iborat. 1) tushuntirish; 2) ishonitirish; 3) ma'rifatchilik; 4) tabaqalashgan yondoshuv; 5) sistemali yondoshuv; 6) mahmuriy yo'l; 7) zo'rlik ishlatish.

G'oyaviy tarbiyaning ilmiy usullari falsafa fanida batafsil yoritilgan. Lekin, g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish, milliy g'oya, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda ham ilmiy usullar orqali yondoshilsa, bu masalaning o'rganilishi, targ'ib-tashviq qilinishi zamon talablariga to'la va aniq javob beradi deb o'ylaymiz. Chunki, ilmsiztarbiya hech qachon yetarli natija bermagan.

Milliy qadriyatlarni yoshlari ongi va qalbiga singdirish usullari to'g'risida fikr bildirganda shuni alohida qayd qilmoq kerakki, avvalo ma'muriy yo'l va zo'rlik usuliga ehtiyotkor bo'lish talab qilindi. Chunki imkoni boricha zo'rlik qilish, majbur qilish usulidan foydalanmaslik maqsadga muvofiqdir. I. A. Karimov tahkidlaganidek, "g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin".[4.b.10.] Bu mustaqil O'zbekistonda ma'naviy-mahrifiy sohada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning bosh tamoyillaridan biri hisoblanadi. Chunki, zo'rlik yo'li, majbur qilish

bilan tahsir qilingan tarbiya vaqt o'tishi bilan olib borilgan tarbiya ishiga zarar keltiradi.

G'oyaviy dunyoqarashni shakllantirishda mahmuriy yo'l asosiy usulga ayblanmasligi kerak. Jumladan, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham mahmuriy yo'l haqida shunday fikr bildirish mumkin. To'g'ri O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida qator jinoyatlar qoralanadi va bundan jinoyatchilarga javobgarlikka tortish belgilangan. Jumladan, Jinoyat Kodeksining 141-moddasida fuqarolarning teng huquqligini buzish; 155-moddasida milliy, irqiy, diniy, adovat quzg'atish; 157-moddasida davlatga xoinlik qilish; 158-moddasida Prezidentga tajovuz qilish, 159-moddasida Konstitutsiyaga qarshi harakat qilish va boshqa moddalarda sodir etilgan jinoyatlar uchun mahmuriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi qayd etilgan. Lekin, bunday jinoyatlarga yo'l qo'yilmasa aslo mahmuriy jazolash mumkin emas.

G'oyaviy tarbiyaning, milliy qadriyatlar ruhida yoshlarni tarbiyalashning boshqa usullari, xususan, tushuntirish, ishontirish, ma'rifatli qilish, tabaqalashgan holda yondoshish, sistemali, yondoshish, o'z-o'zini ishontirish olib borilayotgan davr, sharoit, muhit, obhekt, vaziyatga qarab belgilanadi. Shunga ko'ra, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida bu usullarning barchasidan ham foydalanish taqozo etadi, ularni ustuvor deb ko'rsatish sharoit, muhit, obhektsiz o'rinsizroq hisoblanadi. Lekin, ularni barchasining asosiy maqsadi milliy g'oya, milliy mafkuraning asosiy maqsadi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot bar'o etish, ularning asosiy g'oyalari: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik va boshqalarni omma ongiga, avvalo yoshlar ongi va qalbiga singdirish, buyuk O'zbekistonning buyuk fuqarosini tarbiyalash hisoblanadi[31.b.35].

G'oyaviy tarbiya, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash odatda uch shaklda olib boriladi: og'zaki, yozma, ko'rgazmali.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning og'zaki shakli odatda suhbat, mahruza, trening, savol-javob, bahs va boshqa ko'rinishlarda olib boriladi. Yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirishning bu shakli samaradorligi voizning, tarbiyachining, murabbiyning, muallimning, ustozning bilibmi, ehtiqodi, jamiyatimiz muammolari va uni bartaraf etish yo'llarini aniq batafsil dalillar bilan ilmiy asosda tushuntirib bera olishiga bog'liq. Hozirgi davrda bu sohadagi tarbiyada muloqot, savol-javob, trening shakllariga katta ehtibor berilmoqda.

Yoshlarning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning yozma shakli ham yoshning dunyoqarashini shakllantirishda, ayniqsa, o'zini-o'zi tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi. Xususan, O'zbekiston mustaqilligi, mustaqillikning muvaffaqiyatlari aholining ma'naviy-ma'rifiy darajasining oshishi, aholining, jumladan, yoshlarning ehtiqodi, dunyoqarashi, ahloqiy fazilatlari, xullas, milliy g'oya, milliy mafkura muammolariga bag'ishlangan asarlar, risolalar, maqolalarning ko'plab chiqarilishi mamlakatimizda nashr qilinayotgan gazeta va jurnallarda g'oyaviy tarbiyaga, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda doimiy, sistemali, ilmiy asosda ehtiborning ortishi bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshiradi. Yozma adabiyotning tahsirchanligini kuchaytiradi.

G'oyaviy dunyoqarashni shakllantirishda, yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirishda zamon, davr talablariga javob bera oladigan ko'rgazmalarda keng foydalaniladigan vositalarning ham o'ziga xos o'rni, ahamiyati mavjud. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bu sohaga katta ehtibor berilmoqda. Oldingi qo'lda, qing'ir-qiyshiq yoziladigan ko'rgazmali targ'ibot-tashviqot uchun tayyorlangan vositalar o'rnida kom'g'yuterlarda ishlangan ko'rgazmali vositalar turi, shakli, ko'rinishlari yildan-yilga yangilanib bormoqda. Lekin, bu borada eski mafkuraga xizmat qilgan ko'rgazmali vositalarning saqlanib qolishi fuqarolar, xususan, yoshlar ongi, dunyoqarashiga salbiy tahsir qiladi.

Yoshlar ongiga va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirishning ko'rgazmali shakli ham nafaqat zamon, davr, mustaqillik talablariga javob berishi, balki, ayni 'aytda bu jarayonning ilmiy asoslari estetik jihatdan did bilan amalga oshirilgan bo'lishi zarur. Shu jihatdan keyingi yillarda shahar, qishloqlarimizda Amir Temur, Motamsaro Ona kabi haykallarni o'rnatilishi diqqatga sazovordir. Ayni paytda milliy qahramonlarimiz To'maris, Shiroq, Spitamen, Manguberdi, Temur Malik, Mahmud Tarobiy, Nomoz Pirimqulov va boshqalarning nomlarini ham abadiylashtirish yoshlarni, xususan, yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bizning fikrimizcha o'zbek milliy mentalitetiga xos bo'lgan g'oyalar va ezgu fazilatlarni, ayniqsa globallashtirish sharoitida, mafkuraviy kurashlar keskinlashgan paytda kuchli himoya qilish va ularni zamon, davr, taraqqiyot ruhiga moslashtirib rivojlantirish zarur;

Ikkinchidan, mamlakatimizda fikrlar xilma-xilligi, fikrlar rang-barangligi, sog'lom muhitni qaror to'tirish dolzarb muammolardan hisoblanadi;

Uchinchidan, yoshlar, xususan, yoshlar tarbiyasida ehtiborli masalalardan biri vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash va ularni yanada kuchaytirish zarurdir;

To'rtinchidan, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalaridan biri yoshlarda iymon-ehtiqodni shakllantirishdir. Chunki, xalqimiz e'tiqodsiz kishini o'zansiz daryoga o'xshatadi;

Beshinchidan, yurtimiz yoshlari, yoshlari ongiga kirib kelayotgan begona, yot, zararli g'oyalar bo'lmish-“vahhobiylik”, “hizbut-tahrir” g'oyalari tahsiridan yoshlarni himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, “mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho, ma'naviy

va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi".[2.b.137-138]. Natijada xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z taqdirining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi.

Mustaqillik diyorumizning ulug' farzandlari, buyuk siymolarning nomlarini faxru-iftixor bilan tilga olishga, tavalludlarini umumxalq tantanasi sifatida keng nishonlashga, ularning asarlarini ona tilimizda chop etib, xalqimiz ma'naviy kamolotini tahminlashga qulay imkoniyatlar yuzaga keltirdi. Shuningdek, mustaqillik sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzum xukmronlik qilgan yillardagi xalqimiz tarixiga, madaniyatiga biryoqlama yondoshishdek ijtimoiy illatdan ongimizni xoli etdi.

Mustaqillik bizning milliy-ma'naviy ildizlarimiz naqadar teran, naqadar baquvvat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi. "Biz,- deydi I. A. Karimov,-boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo, bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu-fan barq urib yashagan, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'ribu-mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi"[6.b.96].

Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolat'arvarlik, ma'rifat'aravarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan. Endilikda bizning vazifamiz ana shu an'anani yanada taraqqiy ettirib o'z xalqimiz, avvalo yoshlarimiz tafakkuriga mos, tushunarli va yaqin bo'lgan Sharq falsafasi bilan bir qatorda islom ta'limotidan ham bekamu ko'st foydalanmog'imiz lozim.

"Bizning kelajagi buyuk davlatimiz, -deydi I. A. Karimov,-ana shu falsafaga uyg'un holda, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher

Navoiy, Mirzo Bobur singari buyuk mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim"[1.b.9].

Mustaqillik sharofati bilan tiklanib, qadrini rostlayotgan, to'xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy ma'naviyatimiz, milliy madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimiz jamiyat taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o'rni benihoya kattadir.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish insonning ahloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Insoning, jumladan, yoshning ma'naviy-ahloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun mohiyati jihatdan chuqur bo'lib, o'z ichiga juda ko'plab sohalarni qamrab oladi. Shularning ichida markaziy o'rinni yoshning dunyoqarashini shakllantirish masalasi egallaydi. Hozirgi yoshdan esa mustaqil tafakkur, mustaqil munosabat, mustaqil fikrlash talab qilinadi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lgan insonning, jumladan, yoshning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Mahlumki, dunyoqarash-bu kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, diniy va hakoza qarashlari va tasavvurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash olam haqidagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to'lamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p mahlumotga, bilimga ega bo'lsalar, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va 'uxta bo'ladi.

Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqeylikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning, yoshning tevarak-atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash yoshning

voqeylikdagi o'z o'rnini va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to'langan, izohlangan va baholangan bilimlar majmuasidir.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va ehtiyoqlari, niyat va maqsadlari, orzu-umidlari, ular faoliyatiga mahlum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar, xususan, milliy qadriyatlar ham kiradi.

Mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarash-ijtimoiy borliqning in'ikosi bo'lib, u muayyan tarixiy davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Inson, yosh ma'naviy kamolotining eng muhim ko'rinishi va zarur shartlaridan biri yosh siyosiy madaniyatining o'sib borishidir. Agar har bir millat vakilida, har bir insonda yuksak siyosiy ong, siyosiy bilim va madaniyat, siyosiy ziyraklik bo'lmasa mustaqillik barqaror bo'la olmaydi.

Siyosiy madaniyat o'zida halollik va 'oklikni, ishchanlik va uzoqni ko'zlab ish tuta bilish fazilatlarini mujassam etgan odamlarning g'oyaviy-siyosiy yetukligi, nazariy bilimlarni, istiqbolni yorqin tasavvur etgan holda amalda qo'llay bilishi, kun tartibidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy muammolarni keng miqyosda hal etish mahorati demakdir. Siyosiy madaniyat, aytilganlaridan tashqari, insondagi, yoshdagi faollik va tashabbuskorlikni, yuksak ahloqiylik, qathiy irodalik, xushmuomalalik, ziyraklik, uzoqni ko'ra bilishni ham o'z ichiga oladi.

Sharq mutafakkirlari jamiyatni ilmiy asosda boshqarish masalalariga katta ehtibor berib kelganlar. Jumladan, Farobiy, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy va boshqalarning asarlarida davlatning tuzilishi, uning ichki va tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, davlat rahbarlarining xususiyatlari bo'yicha muhim ma'lumotlar berilgan. Ularni sinchiklab o'rganib, hayotga ijobiy tadbiq etish mustaqil davlatimizning siyosiy asosini yanada baquvvat qilishda katta zamin bo'lishi shak-shubhasizdir.

Yuksak siyosiy bilim va madaniyatga, iymon-e'tiqodga ega bo'lgan yosh jamiyatimiz, davlatimiz, xalqimiz va millatimizning eng katta boyligi hisoblanadi.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yosh ma'naviy boyligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy barkamollik huquqiy ongni ham o'z ichiga oladi. Inson, yosh muayyan jamiyatda yashar ekan, uning ahloqi-odobi shakllanishi mavjud huquqiy mezonlar bilan bog'lanmog'i kerak. Yoshdagi faollik u hohlagan ishni qila berishdan iborat emas. Faollik jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalar chegarasida bo'lmog'i zarur.

Jamiyat qabul qilgan qonunlarni hurmat qilish, unga asoslanib ish ko'rish, huquqiy qoidalar va mezonlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik ma'naviy kamolot, ahloqiy 'oklik belgisidir.

I. Karimov: "Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy mahlumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U-odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani-turli majoralarni hal qilishda qonunga hilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir"[1.b.29.],-degan edi.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim jihatlaridan birini mamlakatda milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usini qaror to'tirish tashkil qiladi.

Mustaqillik, davlatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlari bo'lgani holda yetuk milliy ong bo'lmasa erkinlik, hurriyatni qo'lda ushlab turish behad mushkullashadi.

Ma'naviy barkamol inson o'zga loyiq ko'rmagan biron-bir nojo'ya ishni o'zgalarga ravo ko'rmaydi, hech bir kishiga jabr-zulmni hohlamaydi, jonzotga ozor bermaydi. Vatanga va millatga sodiqlik ham madaniyatlik, ma'naviy barkamollik, ahloqiy 'oklikning belgilaridan hisoblanadi.



Jismoniy baquvvat, ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk bo'lmasdan turib shaxs barkamol bo'lolmaydi. Ma'naviy, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bu boradagi ishlarning asosiy mohiyati va yo'nalishini tashkil etadi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud ahloq" asarida aytilishicha, "badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadurki...Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'liqdir. Biz sihatimizni saqlamoq ila amr bo'linganmiz, shuning uchun vujudimizni har sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila chiritmoqdan saqlanmog'imiz lozimdir"[11.b.71].

Allomalarimiz asarlarida ta'kidlanganidek, insonning ma'naviy kamolotida jismoniy va badan tarbiyasidan tashqari aqliy tarbiya va go'zallik tarbiyasining, shuningdek, ahloqiy, ruhiy, diniy tarbiyaning ham ahamiyati shak-shubhasizdir.

"Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar no'oklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak"[1.b.53], -deydi I. A. Karimov

Insof va adolat tuyg'usi, iymon va halollik, xushmuomalalik va xushxulqlik-bular inson ma'naviy barkamolligining namoyon bo'lishi shakllaridir.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim jihatlaridan biri-milliy ong, milliy g'ururni tarbiyalashdir.

Milliy ong, milliy g'ururimizning kundan-kunga o'sib, yuksalishi mazkur sohada hech qanday muammo yo'q deganini bildirmaydi, albatta. Xalqimiz milliy ongini yanada rivojlantirib hozirgi davr talabiga javob beradigan holatga keltirish uchun hali ko'p ishlarni amalga oshirishimiz zarur. Shularning ichida katta ehtiborni talab etadigan muammo-xalqimiz huquqiy ongini tarbiyalashdir.

Yoshlarimiz qiyofasi, dunyoqarashi, madaniyatini, insoniy fazilati, qobiliyati nimalardan iborat bo'lishini yaxshi fahmlab, ana shu fazilatlarni shakllantirish ustida tinmay amaliy ish olib borish jamiyatimizning, birinchi navbatda

tarbiyachilar, muallimlar, ‘rofessor-o’qituvchilar, olimlarimiz, barcha ziyolilar va jamoatchilikning oldida turgan dolzarb masala deb tan olishimiz kerak.

Buyuk davlatning yoshlari, yoshlari o’zlarida umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy fan va texnika yutuqlari bilan bir qatorda milliy, ma’naviy odob-ahloq va an’analarimizdagi eng oliyjanob hilatlarini mujassamlashtirgan, yuksak madaniyatli, ma’rifatli, insonparvar, o’z Vataniga fidoyi, yetuk mutaxassis bo’lishlari kerak. Ta’lim-tarbiya ishlari, o’quv jarayoni ana shu maqsadga qaratilmog’i lozim. Bu borada yechimini kutib turgan muammolar oz emas.

Milliy ongimiz, kishilarning, yoshlarning madaniy, ma’naviy saviyasi qanchalik yuqori bo’lsa, oldimizda turgan muammolar shunchalik tez kuchayadi, qudratimiz shunchalik baland, qo’limiz shunchalik uzun bo’ladi.

Xalqimiz o’zligini anglashda milliy, badiiy-estetik ongni rivojlantirish katta rolg’ o’ynaydi. Markaziy Osiyo xalqlari bu borada ham katta an’analarga, tajribaga ega. Ko’p asrlar davomida rivojlanib kelayotgan badiiy asarlar, la’arlar, qo’shiqlar, maqomlar, jozibali raqs va musiqa xalqimiz ma’naviy hayotining tarkibiy qismini hosil qilib ezgulik, go’zallikka shaydolik, insonparvarlik, vatan’arvarlik kabi yuksak fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilib kelgan. Hozirgi vaqtda ana shu an’analarni taraqqiy ettirib xalqimiz badiiy estetik ongini yanada yuksaltirish mustaqil davlatimiz ma’naviyatini yuksak darajaga ko’tarishda, ulardan jahon xalqlarini bahramand etishda, tug’ilgan zaminga, mustaqil davlatimizga sadoqatli bo’lib, fidoyi xizmat qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov: “Eng muhimi, yozuvchilarimiz o’tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, o’z ijodiga, qalb amri bilan tanlagan kasbiga sodiq qolib, milliy o’zligimizni anglash, xalqimiz ongu tafakkurini o’zgartirish, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash va yuksaltirish yo’lida xizmat qilib kelayotganini tahkidlash har tomonlama to’g’ri bo’ladi”[7.b.9], -degan edi.

1996 yildan ehtiboran “O‘zbekiston vatanim manim” nomli ko‘shiqlar ko‘rik tanlovi yangidan-yangi iqtidorlarni ochish bilan birga xalqimiz, jumladan, yoshlar badiiy-estetik ongini yanada yuksaltirib, jonajon Vatanimizga mehr-muhabbatni mustahkamlashda katta ma‘naviy vosita vazifasini o‘tab kelmoqda.

Shuni alohida qayd etish zarurki, chet ellardan kirib kelayotgan milliy urf-odat, an‘analari va ma‘naviyatimizga tamomila zid bo‘lgan ahloqiy buzuvchi, hayosizlik va bemahnilikni yoqlovchi asarlarga qadim o‘zimizning ko‘p asrlik tarixga ega, jahon xalqlari tomonidan ehtirol etilgan sharqona yuksak ma‘naviyatimiz va madaniyatimizni qalqon etib qo‘yishimiz kerak. Bunga erishish uchun har bir kishida, xususan, yoshlarda yuksak madaniyat va ma‘naviyat vorislari ekanligimiz haqida va bu bilan qanchalik faxrlansak arzirlik ekanligi haqida fikr, his-tuyg‘ularni hosil qilishimiz darkor. O‘zini yuksak madaniyatli millatga mansub ekanligini ongli ravishda his qiluvchi va bu bilan qonuniy ravishda faxrlanuvchi insonni hech qachon ahloqiy va g‘oyaviy jihatdan ‘ast madaniyatga (u qanday shaklda namoyon bo‘lmasin) qadam qilib qo‘yish mumkin emas!

Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarimizning, yoshlarimizning g‘oyaviy-madaniy saviyasini yanada oshirishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bizning fikrimizcha yuqorida qayd qilganlar bilan birgalikda quyidagi vositalardan foydalanish tarbiyaviy ishlarning samaradoriligini oshiradi:

1. Yoshlarni ijtimoiy va yakka tartibdagi foydali mehnatga jalb qilish, mehnat o‘rinlari bilan tahminlash, bu jarayonda yoshning, umuman yoshlarning qiziqishi, istehdodi, manfaatiga ham ehtiborni kuchaytirish;

2. Yoshlarda, yoshlarda ijtimoiy faollik fazilatini oshirish, yoshlar harakatida ularni yetakchilik xususiyatlarini oshirish;

3. Milliy g'oya, milliy mafkurani yetarli darajada targ'ib va tashviq qilish. Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unholda milliy g'oyaning, milliy mafkuraning asosiy tamoyillari hisoblanadi;

4. Yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda tabiiy-ilmiy bilimlarni keng targ'ib qilish;

5. Tanqid va o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil fikrlash yo'llarini kuchaytirish;

6. O'tmish merosimiz yutuqlari, mustaqillik adabiyoti, sanhati yutuqlarini keng targ'ib qilish;

7. Milliy an'analar, urf-odatlar ruhida tarbiyalashni kuchaytirish, ayni 'aytda umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayangan holda g'oyaviy tarbiyani tashkil qilish zarur;

8. Yoshlar salohiyatini oshirish, ularning hayotda o'rnini tahminlash bilan bog'liq ishlarni kuchaytirish;

9. Yoshlarni yot, begona zararli g'oyalardan asrash tadbirlarini, mafkuraviy immunitetni shakllantirishga intilish.

Xullas, g'oyaviy dunyoqarash, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zudlik bilan hal qilinadigan ish emas, g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish, yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish uchun tarbiyaviy ishning mavjud barcha usullari, shakllari, vositalaridan o'z o'rnida samarali foydalanish umumiy maqsadlarmizni amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Respublikamiz demokratik, huquqiy, fuqarolik jamiyatining rivojlanish yo'liga o'tgach, milliy qadriyatlarning hayotdagi roli va o'rniga to'liq tushundik. Milliy qadriyatlarga sodiq bo'lgan xalqni qul qilish, abadiy istibdodda saqlash mumkin emas. Shu munosabat bilan I. A. Karimov Andijon voqealari haqida bergan interyusida shunday degan edi: "Men oldin ham aytgan va hozir qalbidam his qilayotgan tuyg'ularni xalqimning oldida, yurtdoshlarimning yuziga qarab, ochiq aytishim lozim: men xalqimning ozodligi, yurtimning mustaqilligi uchun,

kerak bo'lsa, jonimni beraman, lekin o'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi"[5.b.157].

Shunday ekan, milliy qadriyatlar asosida yoshni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda, kelajagi buyuk davlat qurishda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda milliy qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Chunki, mamlakatimizda yashayotgan har bir yoshning va butun aholining ma'naviy-ahloqiy kamoloti orqali insonparvar, demokratik, huquqiy fuqarolik jamiyati, kelajagi buyuk O'zbekiston barpo etiladi.

Davlatimiz rahbari I. A. Karimov shu boisdan ham milliy qadriyatlarga doimiy ehtibor berib kelmoqdalar. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o'zligini tanib, o'z shajarasini idrok etmoqda. Bu holat milliy qadriyatlar boy merosimizni o'zlashtirish asosida rivojlanib bormoqda.

Prezidentimiz o'zining har bir mahruza va nutqlarida, suhbatlarida milliy qadriyatlarning ahamiyatiga alohida ehtibor bermoqdalar. Yoshlarda milliy qadriyatlarning rivojlanish negizlari, qudrati va ahamiyati, ma'naviy-ahloqiy kamolot yo'llari, bu sohadagi vazifa va tadbirlar belgilangan. I. A. Karimov asarlarida pedagogika fanining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan milliy qadriyatlarning tamoyillari bayon etilgan.

Chunonchi, "O'zbekiston buyuk kelajak sari", "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura", "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin", "Vatan-sajdagoh kabi muqaddasdir" kabi asarlarida milliy qadriyatlar asosida yoshlarni, xususan, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning metodologik asoslari yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak ahloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash kabi masalalarga katta ehtibor berishi bilan birga "Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-ahloqiy

jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur" deb ta'kidlagan edi.

Yaqin o'tmishda nashr etilgan maqolalar, kitoblar, qarorlar va hokozolarda qadriyatlar g'oyasi tilga olingan bo'lsa ham ularga munosabatning qamrovli, serqirra va chuqur tahlilni talab qilar edi. Chunki, tarbiya oldida turgan maqsadlar qadriyatlarga nisbatan ikkinchi, hatto uchinchi darajali bo'lib, maktab, oliy ta'lim hayotida uning mintaletida 'aydo bo'lgan umumiy mehyor sifatida qabul qilingan voqeilikni belgilay olmasdi. Qadriyatlar o'zgarsa, umumiy mehyorlar ham tarbiya oldida turgan maqsadlar ham o'zgarardi. Lekin, shuni aytish kerakki, kommunistik mafkura yillarida qadriyatlar asosi omma, jamiyat tomonidan qabul qilinsa ham siyosatchilar o'z obro'lari va qiyofalarini saqlab qolish uchun tan olinmagan, ro'yobga chiqmagan maqsadlarni targ'ib qilishda davom etardilar. Targ'ib qilinayotgan qadriyatlar, maqsadlar bunday olib qaralganda umuman yomon emas edi, hozirda biz umuminsoniy qadriyatlar deb atayotgan tushunchalarning ko'pini o'z ichiga olar edi, ammo bu siyosatning yomon tomoni shunda ediki, aytilayotgan narsalar haqiqat bilan uyg'un emas edi. Ahloqning istalgan bir namunaviy shakli targ'ib qilinib, haqiqatda esa boshqa ahloqiy namunalar rag'batlantirilar edi.

Tarbiya masalalarida ham aniq maqsadga qaratilgan jarayonni ko'rish amri mahol edi. Chunki, tarbiya nazariyasi hayotdan orqada qolib, tarbiya maqsadlari aniq ifodalanmas va natijada yana ta'lim muassasalari zarur texnologiyalarni bilolmay qolardi. Ushbu muammo Rossiyaga taalluqli bo'lib qolmay, balki "kommunistik davrdan qolgan davlatlar"ga tegishli ekanligini tahkidlash lozim. Lekin, milliy istiqlolning dastlabki yillaridanoq umuminsoniy va milliy qadriyatlarga keng yo'l ochilib, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha talablar qo'yildi. Oliy o'quv yurtining jamiyat oldidagi mashuliyati, jamiyatning ta'lim muassasa oldidagi mashuliyati, uning talab va ehtiyojlari kundan-kunga rivojlanib bordi.

Ayniqsa, 1999 yil 16-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy va o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qabul qilgan Qarori, shuningdek, oliy ta'lim bo'yicha ham shunday Qarorning qabul qilinishi ta'lim mazmunini isloh qilishning yuqori bosqichga ko'tarilishini tahminlashga qaratildi. Qarorda "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, huquq, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi" deb ta'kidlanadi. Bu g'oya oliy ta'lim davlat standartlari haqidagi Qarorida ham alohida o'ziga xos ta'kidlanadi. Demak, qarorlarda ko'rsatilishicha, o'quvchi, yosh kamolotida fan, maktab, jamiyat uzviyligini davlat nazorat qiladi va unga g'amxo'rlik ko'rsatadi. Shu o'rinda shuni aytish kerakki, ushbu davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchi va yoshlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan majburiy minimal talablarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shartligi ijtimoiy fanlarda, ayniqsa, falsafa, milliy g'oya, milliy mafkura, tarix, davlat va huquq asoslari, musiqa va sanhat madaniyati, ma'naviyat asoslari kabilarda ifodalangan.

Davlat ta'lim standartlarida qadriyatlar haqidagi bilimlar bugun ta'lim muddati mobaynida va uning hamma shakllarida berilishiga alohida ahamiyat berilgan.

Shunday ekan, har bir yoshni ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirishda badiiy adabiyotni o'qishga ishtiyoq uyg'otish, qo'shiq aytish, raqs tushish, rasm chizish malakalarini tarkib to'tirish, rangtasvirlar, musiqa asari, mehmorchilik, teatr to'g'risida tushunchalar hosil qilish, tarixga qiziqtirish muhim ahamiyatga ega. Go'zallik olamiga oshno bo'lgan inson hech qachon undan ajralmaydi.

Darhaqiqat, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda adabiyot darsi davr bilan hamnafas bo'lishi zarur. Buning uchun adabiyot o'qitish dasturi davr bilan birga takomillashib, yangilanib borishi kerak. Adabiyot darsi o'z fani asoslarini

o'rgatish bilan birga yoshlar uchun hayot darsiga aylanashi, ularni hayotga tayyorlashi lozim. SHunday ekan, har bir professor-o'qituvchi oliy maktabda adabiyot o'qitishning maqsadini belgilashda, faqatgina yozuvchining tarjimai holi haqida ma'lumot berish, har bir asarni tahlil qilganda, ijtimoiy kelib chiqishini ko'pirtirish bilan chegeralanib qolmay, balki, birinchi navbatda yoshni hayot haqidagi son-sanoqsiz muammolar to'g'risida mustaqil fikrlashga o'rgatish muhimdir. Hayotni o'rganishda adabiyot yoshga eng yaqin yordamchi bo'lishiga erishish lozim. Yosh adabiyot fanida adabiy asarlarni o'rganish orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday ekan, o'qituvchi o'z yoshiga haqgo'ylik, adolat, vijdon, to'g'rilik kabi ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni aqlangina emas, qalban ham his qilishga o'rgatish lozim.

“Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida” gi Qaror ilovasida yoshlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablarida “O'zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi” darslarida “insoniyat doimo oldinga intilganligi, bu esa tarixiy taraqqiyotning asosi bo'lganligini anglash; jamiyatda va dunyoda kechayotgan jarayonlarga o'zining mustaqil munosabatini bildirish olish, milliy mustaqillik va uning dastlabki yutuqlari, mamlakatimiz bayrog'i, gerbi, madhiyasi, davlat ramzlari, Prezidenti tashqi aloqalarga doir tushunchalarga ega bo'lish; Prezident asarlarini bilish, ularda ilgari surilgan g'oyalar asosida mushohada yuritish olish; dunyo xalqlari oldida turgan jahonshumul muammolar, ularni bartaraf etish vazifalari, O'zbekiston Respublikasining bu muammolarni hal etish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumotga ega bo'lish kabilar haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart”, deb ko'rsatilgan.

Huddi shuningdek, “Davlat va huquq asoslari”, “Huquqshunoslik”, “Konstitutsiya asoslari” fanlaridan ham davlatning tuzilishi, ahloq va huquqning o'zaro bog'liqligi va tafovutlarini bilish; O'zbekistonda insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish asoslarini tushuntirish olish; o'zbek milliy davlatchiligi va uning taraqqiyoti haqida tasavvurga ega bo'lish;



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning tuzilishi va mazmunini tasvirlay olish kabilar haqidagi bilim ko'nikma va malakalarni egallashlari shartligiga ehtibor qaratilgan.

Demak, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlar dasturlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning mazmunida yoshlarni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashga keng o'rin berilgan. Shunday ekan, ta'lim va tarbiyani milliy qadriyatlardan ajralgan holda yo'lga qo'yish yoshlarni ajdodlar merosidan nasl-nasabidan uzoqlashtirishga olib keladi. Ayniqsa, milliy o'z-o'zini anglash hissining shakllanmasligi ayrim hollarda millatlararo munosabatlarning buzilishiga, milliy hudbinlikni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ayonki, bu milliy vatan'arvarlik bilimlarining mazmunini yoritishda hato qilmaslik va tarixni, adabiyotni, falsafiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy fanlarni faqat bitta millat nuqtai nazaridan tahlil qilib, boshqa xalqlarni tarixiy jarayonidan hatto hozirgi kun hayotidan "chiqarib" tashlash kerak degan mahnoni anglatmaydi.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, mushohada qilish aqlni 'eshlaydi, aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Inson tarbiyasi uzoq muddatli, uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon. U tarbiyachi (ota-ona, ustoz-murabbiy, pedagog)lardan doimo xushyorlik, sergaklik, mahorat, bilim talab qiladi. Shu tarzda insonning asta-sekinaqliy salohiyati takomillashib, u komillikka intilib boradi. Bularni amalga oshirish uchun esa tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mashuliyatli munosabat, sharafli mehnat, qunt, iroda va shu kabi axloqiy xislatlar talab etiladi. Insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi (mahalla, ko'cha, bog'cha, maktab, oliy o'quv yurti), ijtimoiy muhit va tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi.

Ushbu sohada olib borilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, axloqiy tarbiyaning uzluksizligini quyidagi ko'rinishda olib borish maqsadga muvofiq ekan: ona qornida → oilada → maktabgacha ta'lim muassasasida → boshlang'ich maktabda → o'rta maktabda → O'MKHTda → oliy o'quv yurtida → oliy o'quv yurtidan keyingi faoliyatda.

Tarbiya inson umrining oxirigacha davom etadigan jarayon bo'lib (inson umrining oxirigacha o'rganadi, degan naql asosida tarbiyalanib), doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib, komillikka intilib yashaydi. Quyida uzluksiz ravishda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning har bir bosqichini alohida ko'rib chiqamiz.

Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrni bir qator SHarq mutafakkirlari ham tahkidlab o'tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham mahnan sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi. Prezidentimiz I.A.Karimov sog'lom avlod to'g'risida fikr yuritib: «Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi-fikri sog'lom, imon-ehtiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman»[38.b.26], deb ta'kidlaganlar. Ushbu fikrni har bir ota-ona, pedagog, tarbiyachilar tushunib yetmog'i va o'ziga shior qilib olmog'i lozim.

Farzand tug'ilgan kundan boshlab dastlab oila muhitida tarbiyalanadi. Bu davrda bolani to'g'ri ovqatlantirish, to'g'ri 'arvarish qilish juda muhim. Bir yoshgacha bo'lgan davrda bola o'ziga yaqin kishilarni ko'rganda xursand bo'ladi, rangdor o'yinchoqlarni xush ko'radi. Bu davrda bolani alla, mahnoli erkalashlar, chiroyli o'yinchoqlar orqali tarbiyalab borish lozim. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar esa turli o'yinchoqlarni o'ynay boshlaydilar, asta-sekin nutqi rivojlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'yin orqali bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar, tasavvur, fikrlash jarayoni shakllanadi. Bu vaqtdan boshlab bolalarga do'stlik, inoqlik, o'zaro hurmat, bir-biriga yordam tushunchalarini sodda qilib

tushuntirib borish ahamiyatlidir. Bolalar bu davrda eshitgan narsasini takrorlashga urinadilar, shu sababli bu davrda kattalarning mahnili so'zlashuvi, yurish-turishi, odobi, o'zaro ahilligi, mehribonligi bola ruhiyatiga tahsir etadi. Ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning xatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo'lishi, bolaning sog'lom o'sishiga, odob-axloqli bo'lishiga olib keladi. Bolani lozim bo'lganda maqtash, diqqatini ijobiy faoliyatga tortish, yomon ishlardan ehtiyot bo'lishini uqtirish, axloqsiz so'z va ga'lardan uzoqroqda bo'lishini tahminlash, o'rtoqlari bilan urishmaslik yo'llarini o'rgatish – ularga axloqiy tarbiya berishda ijobiy tahsir hisoblanadi.

## **2.2.Qadriyatlar va ularga xavf solayotgan yot qadriyatlar va madaniyatlar.**

Falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarning turli tiplari ajratib ko'rsatiladi.

1. Qadriyatlar quyidagi belgi bo'yicha farqlanishi mumkin: Nima baholanyapti va nimaga asosan baholanyapti? Shu bilan bog'liq ravishda ular quyidagicha turlarga ajratiladi:

a) *predmetli qadriyatlar* - qadr-qimmat munosabatlarining ob'ektlari, ya'ni voqelikdagi sub'ekt uchun muayyan qimmatga ega bo'lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- tabiiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar;
- ijtimoiyob'ektlar, jarayonlar va hodisalar.

b) *sub'ektliqadriyatlar* - u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o'tkazishda asos bo'lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar. Ularga quyidagilar kiradi:

-me'yoriy taqdimnomalar sifatida bayon etilgan ko'rsatmalar, baholar, imperativlar, maqsadlar, loyihalar.

2. Qadriyatlar sotsiumining qanday sohasi bilan bog'liq ekanligiga qarab ham bir-biridan farqqiladi. Shundan kelib chiqib *axloqiy, badiiy, utilitar, ilmiy, diniy*va boshqa qadriyatlar farqlanadi.

3. Qadriyatlar umumiylik darajasiga qarab, ya'ni, u yoki bu hodisa qancha miqdordagi sub'ektlar uchun qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda quyidagi turlar ajratib ko'rsatiladi;

- individualqadriyatlar;
- guruhiyqadriyatlar (milliy, diniy, jinsiy, yosh); ushbu guruhlar doirasida g'arb va sharqqadriyat tizimlari haqida so'z yuritish mumkin.

- umuminsoniy;

4. Qadriyatlar ular sub'ekt tomonidan qay darajada o'z xususiy maqsadi yoki tamoyillari sifatida tan olinishi yoki tashqi sharoitdankelib chiquvchi bir narsa sifatida qabul qilinishiga ko'ra farqqilishi mumkin. Shu bilan bog'liq ravishda tashqi va ichkiqadriyatlar ajratiladi.

5. Qadriyatlar inson hayoti va faoliyatining negizlari uchun, uning ehtiyojlari va mo'ljallarining mohiyatini ifodalash uchun qayo darajada qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu munosabat bilan ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- mutlaq yoki boqiy qadriyatlar (konstantalar);
- vaziyatli, o'tkinchi yoki qadriyatlar va qadriyaviy mezonlarining muayyan tarixiy shakllari (empirik o'zgaruvchan qadriyatlar).

6. Qadriyatlar ular bajaradigan funktsiyaga ko'ra ham farqlanadi. SHu bilan bog'liq ravishda qadriyatlar mezon usuli sifatida, qadriyatlar ijtimoiy guruhlarda nazorat usuli sifatida, qadriyatlar ijtimoiy tartibni yaratish va saqlashda funktsional zarur bo'lgan me'yorlar sifatida ajratiladi.

Aksiologiyada juda ko'p an'anaviy vahozirgi zamon falsafiy muammolari yangicha ko'rib chiqiladi. Masalan, an'anaga ko'ra, haqiqatga etish ilmiy bilishning ideali, shaksiz ne'mat, yaxshilik deb hisoblangan. BiroqXXasr ushbu qarashga o'z tuzatishlarini kiritdi. Industrializmning va texnitsistik yondashuvlarning salbiy oqibatlari, ommaviy qirg'in quollarining yaratilishi va qo'llanishi, gen muhandisligining paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, muammoga

sof gnoseologik yondashuv etarli emas. Bugungi kunda «faqat haqiqatning qadri haqidagina emas, balki uning bahosi haqidagi masala ham paydo bo'ladi, bunda boshlang'ich hisob nuqtasi sifatida inson va uning baxt-saodati namoyon bo'ladi».Haqiqat tobora ko'proq aksiologik kategoriyalar ko'zgusi orqali qarala boshlanmoqda.

Lozim va zarur narsalar haqida qadriyaviy ideallar sifatida so'z yuritar ekan, aksiologiya borliqning muammoli masalalari borasida bizning tasavvurlarimiz doirasini kengaytirdi. Ilgari me'yoriy hodisa deb hisoblangan narsalar hozirgi zamon aksiologik yondashuvlari ko'zgusida unday bo'lib ko'rinmaydi.Qadriyaviy mezon vaqadriyaviy qarash amalda hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda shu narsa ayon bo'lyaptiki, biron bir ijtimoiy institut, biron bir muhim ijtimoiy muammo, jamiyatning biron bir sohaga aksiologik yondashuvlardan tashqarida ko'rib chiqilishi mumkin emas.Bunda qadriyatlarni qayta baholash lokal masalalarga ham, global masalalarga ham birdek tegishlidir.Texnik taraqqiyot baxt-saodat keltiradimi?Insonni klonlashtirish mumkinmi?Evtanaziya - bu ezgulikmi yoki qotillikmi?Agar uning kashfiyotlaridan foydalanish odamlarning halok bo'lishiga sabab bo'lsa, olim o'z kashfiyotining oqibatlari uchun javobgar bo'ladimi? Ilmiy va siyosiy ongda asta-sekin sof iqtisodiy, sof texnologik, qadriyaviy komponentlardan tashqarida qaraluvchi sof tadqiqotchilik loyihalaridan voz kechish tamoyili yuzaga kelayotganini ko'rish mumkin.

O'z navbatida qadriyatlarning o'ziga, munosabat va qadriyaviy ongga gnoseologik, sotsiologik, psixologik, semiotik va boshqa yondashuvlar nuqtai nazaridan qaralmoqda.

Turli tarixiy davrlarda, turli mamlakatlarda vaxalqlarda, ijtimoiy guruhlarda va ayrim individlarda turli-tuman qadriyaviy orientatsiyalar (mezonlar) mavjud bo'lgan. Ular guruhiy darajada ham individual darajada ham mavjuddir.Qadriyaviy orientatsiyalarning xilma-xilligi turli omillar tomonidan taqozo etilgan. Bular

qatoriga atrofni o'rab turuvchi tabiiy muhit ham, yashash uchun mablag'lar topish vositalari ham, siyosiy voqealar, oiladagi tarbiya, shaxsiy hayotiy tajriba va boshqalar kiradi. Muayyan bosqichda, rivojlangan shaklda qadriyaviy mezonlar tizimli xususiyat kasb etadi.

Turli-tuman qadriyaviy orientatsiyalarning qadriyatlar tizimi sifatida tashkil topish ular orasida boshqa dunyoqarash mezonlarini bo'ysundiruvchi, belgilovchi va shakllantiruvchi, ulardan ustun bo'lgan qadriyatlar paydo bo'lgan vaqtda yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, qadriyatlar tizimining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiluvchi substantsional negiz paydo bo'ladi. Bu negiz paradigma (ustunlik qiluvchi qadriyatlar) xususiyatiga ega. Jamiyat darajasida olganda (ijtimoiy guruhlar darajasida) ushbu ustun qadriyatlar oxir-oqibatda muayyan tarixiy davrning ijtimoiy jamiyatiga xos tamoyillar bilan belgilanadi.

Individual darajada olganda qadriyaviy orientatsiyalar tizimining shakllanishi shaxsning etukligini, uning butunligini anglatuvchi ko'rsatkichdir. SHaxsning qadriyaviy orientatsiyalari eklektik va qarama-qarshi xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday hollarda biz yagona, bir butun tizim sifatida shakllanmagan, rivojlanmagan qadriyaviy mezonlarga duch kelamiz. Qadriyaviy orientatsiyalarda etuklikning, yaxlitlikning va tizimlilikning yo'qligi ularning tashqi, ko'p hollarda tasodifiy omillarga bog'liq bo'lib qolishga, xulq-atvordagi hatti-harakatlar izchilligining mavjud bo'lmasligiga, o'z fikriga ega bo'lmaslikka, qashshoq, o'z qiyofasiga ega bo'lmagan ehtiyojlar tuzilmasiga olib keladi.

Shakllangan qadriyat orientatsiyalari asosida esa shaxsning dunyoqarashi, tarbiya va va hayotiy tajriba tufayli ishlab chiqilgan xulq-atvor kodeksi tamoyillariga, hayotiy maqsadlar, chuqur va barqaror ehtiyojlar yotadi. Inson xulq-atvorining motivatsiyasi, yo'nalish va strategiyasini belgilovchi ehtiyojlar, vaziyatlar va omillar pog'onasida qadriyaviy orientatsiyalar tizimi, odatda, eng yuqori pog'onada turadi.

Shaxsning qadriyaviy mezonlarining faoliyatida ongli va ongosti darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Falsafiy adabiyotda jamiyatning tarixiy rivojlanishidagi qadriyaviy tizimlarni tasniflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlarning har biri boshqalarini to'ldiradi, chunki qadriyaviy tizimlarni ko'rib chiqishning bir darajasini ko'rsatadi. Stadiyal va madaniy-tsivilizatsion yondashuvlar eng ko'proq umumlashtirilgan yondashuvlardir, zero ularda ijtimoiy tizimlar yaxlit ko'rib chiqiladi.

Stadiyal yondashuvning yorqin namunasi formatsion yondashuvdir (K.Marks). Ushbu yondashuvga ko'ra jamiyatning rivojlanishi - bu sifat jihatdan muayyan ishlab chiqarish usuliga asoslangan, ketma-ket almashinuvchi bosqichlar (ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalari) zanjiri. Har bir ishlab chiqarish usuli jamiyatning muayyan siyosiy-ijtimoiy tuzilmasini yuzaga keltiradi. Ana shunga muvofiq ravishda qadriyaviy tizimlar ham qaror topadi. Masalan, ishlab chiqarish vositalariga jamoat tomonidan egalik qilishga va urug'chilikka asoslangan ibtidoiy jamoa tuzumida qadriyaviy tizimlar jamoaviylikning, urug'chilikning shaxsiylik va individuallikka nisbatan, an'anaviylikning yangiliklarga nisbatan ustuvorligi tamoyillariga yo'naltirilgan. Xususiy mulkning paydo bo'lishi va qaror topishi bilan individuallikning rivojlanishi uchun iqtisodiy zamin yuzaga keladi. Ayni paytda mulk muayyan guruhga mansub kishilar (hukmron sinflar) qo'lida to'plangan jamiyatlarda mazkur sinflarning qadriyaviy mezonlari hukmron bo'lib qoladi va odatda qonunchilik tomonidan rasmiylashtirib qo'yiladi.

Formatsiyali yondashuv bilan bir qatorda stadiyal yondashuv doirasida bir-biri bilan raqobat qiluvchi bir qator nazariyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. (D.Bell, O.To'ffler. G.Diligenskiy va boshqalar).

Hozirgi zamonaviy qarashlardan biriga muvofiq (G.Diligenskiy) jamiyat rivojida quyidagi tsivilizatsiyaviy bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

kosmogen (an'anaviy jamiyatlar), texnogen (industrial jamiyatlar), antropogen (kelajak jamiyati).

Kosmogen tsivilizatsiya urug'chilikning individuallik, an'analarning yangiliklarga nisabatan ustuvorligiga yo'naltirilgan. Shunga muvofiq asosiy xususiyati an'anaga yo'naltirilganlikdan iborat bo'lgan qadriyat tizimlari shakllanadi. Texnogen tsivilizatsiya ilmiy-texnik taraqqiyotga, texnologik va ijtimoiy yangiliklarga yo'naltirilgan qadriyat tizimlarini shakllantiradi. Biroq industrializm sharoitlarida avtonom shaxsning rivojlanishi odamlar o'rtasida asrlar davomida yuzaga kelgan ijtimoiy aloqalarning yo'qolishga, insoniy muloqotning etishmasligiga, «yolg'izlik»ka, individualizmga, xudbinlikka olib keladi. Antropogen tsivilizatsiya - jamoaviylik va individuallikni uyg'unlashtirish, xilma-xillikdagi mushtaraklikka erishishga urinishdir. Qadriyaviy mezonlar tizimining o'zagi - gumanizm.

Turli xalqlarga xos qadriyat mezonlarini ularning madaniy-tsivilizatsiyaviy asoslari (etnik, mintaqaviy, diniy va hokazo) nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga ega. (O.SHPengler, A.Toynbi, P.Sorokin). Ushbu yondashuv doirasida ko'p hollarda o'z xususiyatlariga ega bo'lgan g'arb va sharqqadriyatlar ajratib ko'rsatiladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olish turli islohotlar strategiyasini ishlab chiqishda tamoyiliy ahamiyatga egadir. Masalan, Markaziy Osiyoda tarixan vujudga kelgan qadriyatlar betakror o'ziga xoslikka ega va islohqilishning hozirgi strategiyalari global - tsivilizatsiyaviy jarayonlarni mavhum nazariy tushunishdan kelib chiqmasligi kerak. Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyat tizimlarining milliy-madaniy o'ziga xosligini hisobga olish ushbu strategiyalarning muhim tarkibiy qismidir.

XX asrda turli madaniy dasturlarning (maqsadlar, qadriyaviy mezonlar, manfaatlar, ehtiyojlar va boshqalarning) yonma-yon mavjud bo'lishi haqidagi masala global-planetar xususiyat kasb etganligi munosabati bilan turli qadriyaviy tizimlar integratsiyasining ahamiyati keskin ortib boradi. Bunday integratsiya turli



darajadagi sub'ektlar (individlari, ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik tashkilotlari, davlatlar, davlatlararo tuzilmalar) tomonidan umumiy manfaatlarining anglab olinishini taqozo etadi. Umumiy manfaatlar o'zaro bir-birini tushunish, «o'zga»ga nisbatan bag'rikenglik va hurmatni chuqurlashtirish uchun zamin bo'lib xizmat qiluvchi bazadir.

Turli madaniyatlarning va qadriyaviy tizimlarning o'zaro ta'siri bir-biriga kirib borishi va ularning yangilanishga bo'lgan tamoyili butun tarixiy taraqqiyot davomida mavjud bo'lganiga qaramay, butun tarix davomida unga qarama-qarshi bo'lgan tamoyil-an'anaviy ukladni, madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlashga bo'lgan intilish ham yashab keldi. Madaniy o'ziga xosligini va madaniy-qadriyaviy tizimlarning xilma-xilligini saqlash muammosi g'arbga xos «ommaviy» madaniyatning tarqalishi sharoitlarida ayniqsa dolzarblik kasb etdi. «Ommaviy» madaniyatning kuchli ekspansiyasiga qaramasdan, o'zining o'ziga xosligini saqlash, milliy madaniyatlarni birxillashtirishni (unifikatsiyani) va standartlashtirishni qabul qilmaslikka intilish ham butun o'tgan asr davomida ko'zga tashlanadi.

XX asrning asosiy tamoyillari yaxlitlikka (birlikka, integratsiyaga) tomon harakat qilish va madaniyatlarning rang-barangligini saqlash, xuddi ilgari, XXI asrda ham rivojlanadi.

Vazifa ana shu ikki qarama-qarshilikni uyg'unlashtirishga - xilma-xillikdagi mushatarklikka erishishdan iborat. Mazmun jihatdan XXI asrda ham XX asrda rivoj topgan qadriyatlar bilan bir qatorda insoniyat ongida va ijtimoiy amaliyotdagi yangi paradigmalari bilan bog'liq yangi qadriyaviy mezonlar paydo bo'lishi kerak.

Insoniyatning turli tarkibiy qismlarining qadriyaviy mezonlari (G'arb-SHarq, SHimol-Janub) bugungi kunda turli xil vektorga va turlicha darajada xususiyatga ega. Tranzit va rivojlanayotgan jamiyatlar uchun ularning kelajagini belgilovchi qadriyaviy mezonlar haqidagi masala - eng muhim va dolzarb masala. Ularni XX asrning texnogen jamiyati (industrial jamiyat) qadriyatlariga

yo'naltirilish mumkin. Ammo bu holda eng rivojlangan industrial mamlakatlardan butunlay orqada qolib ketish xavfli tug'iladiki, buning o'ziga xos iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-psixologik oqibatlari mavjud. Bundan tashqari texnogen (industrial) tsivilizatsiya o'z imkoniyatlarini tugatib bo'ldi hisob va eng rivojlangan industrial mamlakatlarning anada progressiv tarixiy bosqich sifatida postindustrial, axborotli jamiyatga o'tishi shundan dalolat beradi. Jamiyatning mazkur tipiga orientatsiya etish «industrial» bosqichning muammosini hal qilishga imkon beruvchi butunlay yangi strategiyalarni qidirib topishni taqozo etadi.

#### 4. SHarq va G'arb qadriyatlarini o'rtasidagi tasavvuf

Asrlar davomida (qariyb XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshigacha) Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyat tizimlari an'anaviy jamiyat me'yorlari doirasida rivojlandi. An'anaviy jamiyatning eng asosiy tasnifi qadimdan qaror topgan ijtimoiy-madaniy tuzilmalar va stereotiplarning saqlanishi va qayta tiklanishiga yo'naltirilganligidir. An'anaviy madaniyatlarning aksiologik tizimlarida tarixan vujudga kelgan va qaror topgan hayot va faoliyat usullarining barqarorligi eng oliy qadriyatlardan biri sifatida qabul qilinadi. Bunda faoliyatning har qanday novatorli, islohchilik va inqilobiy shakllari asrlar davomida muqaddaslashtirilgan, oldingi ajdodlarning qadriyaviy tajribalarini o'zida jam qilgan me'yorlar va andozalarga qasd qilish sifatida qabul etiladi.

An'anaviy jamiyatning ma'naviy sohasi, odatda, diniy-mifologik poydevorga suyanadi, mafkuraviy tizimlar eng avvalo tarkib topgan ijtimoiy madaniy ukhadning saqlanishiga yo'naltiriladi.

An'anaviy jamiyatning mentalligi-introvertiv, ratsional-mantiqiy tuzilishdan ko'ra ko'proqobrazlarga tayanuvchi intuitiv tafakkurdir. Aynan shu sababli an'anaviy sharq jamiyatining falsafiy tizimlari mifologiya, din, she'riyat, folklor bilan chambarchas bog'liq.

XX asrning murakkab tarixiy voqealari barcha sobiq sovet va sobiq sotsialistik mamlakatlarning qadriyat tizimlariga turlicha ta'sir ko'rsatdi, biroq

ular Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos madaniy hayotida alohida muhim rol o'ynadi. Mazkur xalqlarning butun qadriyaviy tizimi (diniy qadriyatlar, milliy ehtiyojlari ma'naviy madaniyatning o'ziga xos hodisalari, ona tillari xalqlarning mentaliteti va boshqalar) jiddiy transformatsiyaga uchradi. Bugungi kunda yuz berayotgan milliy tiklanish jarayonlari sharoitida Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyaviy tizimining tushuncha va mohiyatini ularning XX asr va XXI asr boshlaridagi transformatsiyasini falsafiy anglab etish zarurati tuzildi. Mazkur transformatsiyalar «umuminsoniy-milliy» kontekstda ko'rib chiqilishi mumkin.

Bir tomondan shuni esda tutish zarurki, har qanday jamiyatning butun qadriyaviy tizimi - fan, falsafa, san'at, adabiyot - faqat milliy an'analar bilan cheklanmaydi, chunki inson faqat biologik mavjudot sifatida emas, ijtimoiy mavjudot sifatida ham yagonadir. Bu ayniqsa, axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, tezkor aloqaning zamonaviy tizimlari rivoj topgan hozirgi dinamik davrga dahldordir. Barcha mamlakatlar va qit'alarning hayotiy manfaatlari, asosiy muammolari eng muhim jihatlar bo'yicha mos keladi. Umuminsoniy muammolar umuminsoniy qadriyatlar tizimini shakllantirish zaruratini taqozo qiladi.

Boshqa tomondan, milliy (yagona sifatida), mintaqaviy (alohida sifatida), umuminsoniy (umumiy, yalpi) qadriyatlar dialektikasini hisobga olgan holda yoshlarni milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlarga, milliy til va san'atga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Agar inson o'z xalqining milliy madaniyatini, tarixini, ma'naviy qadriyatlarini yaxshi bilsa va qabul qilsa, u holda u dunyodagi boshqa xalqlarning madaniyati va falsafasini ham yaxshi qabul qiladi, ular haqida o'z mustaqil fikriga ega bo'ladi deb ishonish mumkin.

Xalqlarning ko'plab an'analari, urf-odatlari, udumlari va qadriyat tizimining boshqa unsurlari butun XX asr davomida saqlanib kelgan bo'lishiga qaramay, bu tizimning ko'plab komponentlari transformatsiyaga uchradi. Bir qator an'analar butunlay yo'qolib ketgan bo'lsa, boshqalari o'zlarining ichki qadriyaviy

mazmunini o'zgartirdi. Oilaviy, maishiy, bayram urf-odatlarini sirasiga ko'plab yangi unsurlar kirib keldi, badiiy madaniyatning tubdan yangi turlari (portret xaykaltaroshligi, portret rasmchiligi, opera, balet, operetta va boshqalar) paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyo xalqlari tillarida, shu jumladan o'zbek tilida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Alifbo va imlo bir necha marta isloh qilindi: arab alifbosining transformatsiyasi va uni o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirilishi (XX asrning 20-yillari boshida), lotin yozuvining birinchi davri (1929-1940), kirillitsa davri (1940 yildan XX asrdan 90-yillarigacha), lotin yozuviga ikkinchi marta o'tish (XX asrning 90-yillari). Leksika sezilarli darajada o'zgardi: eski turmush tarzi bilan bog'liq butun bir leksik qatlam yo'q bo'lib ketdi va ko'plab yangi so'zlar paydo bo'ldi.

O'zbek jamiyatida qadimdan o'z qadriyatlar tizimi, dunyoqarash mezonlari va odamlarning xulq-atvor me'yorlari shakllangan. Bu me'yoriy doira - an'anaviy maishiy madaniyatning o'ziga xos o'zagi. Uning asosida odamlarning bir nechta avlodlari tomonidan ishlab chiqilgan, o'zbeklar uchun an'anaviy bo'lgan dunyoqarash tushunchalari yotadi. An'anaviy xulq-atvorning qoliplari ongning etnik va diniy shakllari bilan chambarchas bog'liqdir. Axloqiy-ma'naviy an'analar va tushunchalarning katta qismi islom aqidalarini bilan mustahkamlangan yoki aholi tomonidan shunday (islom an'analari sifatida) qabul qilinadi.

O'zbek jamiyatida jamoa institutlari ulkan ahamiyat kasb etadi. SHarq kishisi ularsiz o'zini tasavvur eta olmaydi va ular uning qadriyaviy mezonlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Asrlar davomida har bir kishining hayoti qat'iy reglamentga bo'ysungan holda kechgan va bosqichma-bosqich belgilanib qo'yilgan. Mazkur hayot bosqichlarining har biri jamoaning tajribasi, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Oilaviy-qarindoshlik vaqo'ni-qo'shnichilik jamoalari singari integratsion institutlar yuksak qadriyat mezonlari deb hisoblanishining sababi mana shundadir. Bir hayotiy bosqichdan boshqasiga

o'tishi faqat ayrim oila doirasidagi voqea bo'lib qolmasdan, bunday marosimlarga butun oilaviy-qarindosh jamoalar vaqo'ni-qo'shnilar jamoasi jalb etilar edi. SHarq sotsiumi alohida bir shaxsning manfaati emas, balki ijtimoiy manfaatlar, oila va jamoa manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishga asoslangan. An'anaviy jamoalarda esa shaxs manfaatlari guruh manfaatlarini sanaladi. Sharqda shaxs o'zini jamiyatdan alohida tarzda tasavvur etolmaydi. Shu bois o'zbek jamiyatida jamoa an'analari, rasm-rusum va urf-odatlarini qadrlanib avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Bular insonning nafaqat ma'naviy-madaniy talablarini qondirishga, balki sharq jamiyatida insonning sotsial statusini belgilashda ham juda katta ahamiyat kasb etadi.

Kollektivning ma'naviy hayot tarzi O'zbekistonda keng tarqalgan, o'zbeklarning ma'naviy dunyosini tavsiflovchi sotsio-normativ madaniyatning qatlamini tashkil etuvchi mahalla nomli qo'shni-hududiy jamoa tashkilotlarida juda yaxshi saqlanib qolgan.

Mehmondo'stlik - o'zbek hayotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, mehmon har bir oilada hurmat va izzat qilinadi. Mehmon kutishning an'anaviy udumlariga rioya qilinadi. Bu udumlar taklif qilingan mehmonlarni kutishda ham, taklifsiz kelgan mehmonlarni qabul qilishda ham saqlanadi. Barcha hollarda ham ushbu udum mehmonga hurmat, uning mazkur xonadonda o'zini bemalol his qilishga sharoit yaratishga tayyorlik ruhi bilan sug'orilgan.

O'zbek sotsiumida atrofdagi kishilarning fikri va ularning hurmatiga sazovor bo'lishdan iborat qadriyaviy mezon har doim yuksak bo'lib kelgan. O'z xulq-atvorining an'anaviy standartlarga muvofiqligi - o'zbek mentalitetining eng muhim tarkibiy qismi.

O'zbeklarning ijtimoiy me'yoriy madaniyatida inson xulq-atvorining amalda hayotdagi barcha standart holatlar uchun an'ana tomonidan belgilab qo'yilgan qoidalarini ko'rish mumkin. Ular bolalikdan boshlab shakllantiriladi. Ayrim neordinar, istisnoholatlarda ham insonning an'anaviy xulq-atvor me'yorlarining

tashuvchilari sifatida namoyon bo'luvchi oqsoqollar va hurmatli kishilar bilan maslahat qilmay, mustaqil qaror qabul qilishi kamdan-kam uchraydi.

O'zbeklarning qadriyaviy mezonlar tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri katta yoshli, keksa kishilarga hurmat va izzat bilan qarashdir. Ko'p hollarda bobolar va buvilar oilaning nominal boshliqlari hisoblanadi (hatto ular keksaliklari sababli boshchilik qila olmagan hollarda ham). Oilaning barcha qolgan a'zolari ularning qarorlari va maslahatlariga quloq soladilar. Bayramlarda, hayitlarda keksa qarindoshlarni ziyorat qilish, ularga sovg'alar va noz-ne'matlar olib borish an'anasi saqlanib qolmoqda. Keksalar haqida g'amxo'rlik qilish birinchi o'rinda turadi va ko'p hollarda namoyon bo'ladi. Bolalarning o'z otionalari hamda keksa, yolg'iz qolgan qarindoshlarini boqishlari va ularga vasiylik qilishlaridan iborat an'anaga qat'iy rioya qilinadi.

O'zbek tilida «savob ish» degan tushuncha bor. Bevalarga, etimlarga yordam berish ana shunday ishlardan hisoblanadi. Urishib qolganlarni yarashtirish ham ezgu ish hisoblanadi. Ana shu savob olish an'anasi doirasida uyda non yopilgan kunlari qo'shnilarga chiqarish yoki tovoqda taom kirgizish odati mavjud.

Iltimos bilan murojaat qilgan kishiga rad javobi berish rasm emas, unga qo'ldan kelganicha yordam berish zarur. Uning iltimosini qondirishning iloji bo'lmagan hollarda ham iltimos birdaniga rad qilinmaydi, balki uning ko'nglini ko'taruvchi so'zlar aytiladi.

O'zbeklarning qadriyaviy tizimlarining shakllanishida ajdodlarning ma'naviy merosi katta ahamiyat kasb etadi. Xalqorasida tarqalgan hikmatli so'zlar, mashhur arboblarning ishlari va faoliyati haqidagi rivoyatlar, avliyolar hayotidan olingan diniy hikoyalarning axloqiy-ma'naviy tarbiya uchun ahamiyati katta. Shu sababli ular omma orasida keng tarqalgan.

O'zbek jamiyatida inson xulq-atvorining an'anaviy etikasi butun bir hayotiy tizimni tashkil etgan. Unda shaxsning ma'naviy xulq-atvoriga hamma vaqt alohida ahamiyat berilgan. Yuz bergan jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy

transformatsiyalarga qaramay, unda davr davomida jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni tartibga solib kelgan va me'yor vazifasini bajargan an'anaviy axloqiy negiz saqlanib qolgan. Qadriyatlarining boshqa bir relyativistik (sub'ektivistik) kontsepsiyasi ham mavjud bo'lib, unga Protagor asos solgan. Mazkur kontsepsiyaga muvofiq qadriyatlarining bahosi nisbiy bo'lib, u insonga bog'liqdir.

Qadriyat muammosiga antik davrdayoq shakllangan yondashuvlar o'z ko'rinishlarini muayyan darajada o'zgartirgan holda keyingi falsafiy tizimlarda ham saqlab keldilar. Aksiologiya muammosini ishlab chiqishga I.Kant, G.Lotse, G.Rikkert, N.Gartman, F.Nitsche va boshqalar o'z hissalarini qo'shdilar.

### **Bob bo'yicha xulosa**

Darhaqiqat, bugungi kunda faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning inson hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. SHunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama ma'naviy-ahloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Demak, yosh xulq-atvoriga milliy qadriyatlarni singdirish nafaqat ijtimoiy-falsafiy muammodir. Garchi qadriyatlar nazariyasi falsafiy muammo sifatida 1960 yillardan boshlab sobiq ittifoq tadqiq etila boshlangan bo'lsa-da, bu qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyatiga faqat mustaqillikka erishilgandan keyin ehtibor berila boshlandi. Falsafiy talqinga ko'ra, qadriyatlar inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, hayotda va tabiatda bo'ladigan yaxshiligu-ezgulik kabi jamiki hislatu-fazilatlar yig'indisidir.

Ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan esa qadriyatlar insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan. Amaliy faoliyatida davr sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'z shakli va mazmunida u yoki bu xalqning ma'naviy-ahloqiy olamini ifoda etgan, asrlar davomida xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan jamiki ma'naviy ruhiy jihatlar majmui sifatida izohlanadi. SHunga ko'ra, umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar manfaatiga mos keladigan ma'naviy xazinadan iborat bo'lib, milliy qadriyatlar bilan yagona tarbiyaviy asosga egadir.

Lekin, shuni aytish kerakki, bugungi kunda tez-tez tilga olinayotgan qadriyatlar muammosiga ilgari juda ham kam ehtibor qilinardi. Qadriyatlar to'g'risida gap ketganda ushbu muammo esdan chiqarilayotganligini tahkidlash uchungina aytib o'tilardi, xolos.

### **Umumiy xulosa**

Insoniyat tarixining ilk davrlaridayoqodamlar narsalarning muayyan qimmatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo'lishi mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan.

Dastlabki paytlarda bu xususiyat buyumlarning amaliy foydasi bilan bog'lanardi. Keyinchalik qadriyat maqomi boshqa ijtimoiy institutlar va ma'naviy hodisalarda ham tan olina boshlandi.

Inson o'z faoliyatini yo'naltirishi lozim bo'lgan ne'matlar va qadriyatlar muammosi qadimgi sharq falsafasi va falsafaga qadar bo'lgan fikr tarixida muhim o'rin tutadi. Braxmanlikda - bu qayta tug'ilish orqali yanada yuksakroq varnaga erishish. Insonning keyingi hayotida qayerda tug'ilishi uning taqvodorligi bilan bog'liq, taqvodorlik esa o'z varnasining dxarmasiga xizmat qilish va uning ko'rsatmalaridan chetga chiqmasligini anglatardi. Oliy maqsadga faqat braxmanlar erishishlari mumkin bo'lib, u hamma narsadan (oiladan, boylikdan, olimlikdan) voz kechish va sansaradan ozod bo'lish yo'li. Zohidlik, xayr-ehson,



poklik, kuch ishlatmaslik, yaqin kishilarga hamdard bo'lish, o'z ehtiroslarini jilovlash - braxmanlikning etakchi qadriyatlarini. Upanishadlarda ideal braxman hech narsaga ko'ngil qo'ymaydigan, qayg'u, baxillik, umid tuyg'ularidan ozod, osoyishta, yolg'on va hattoo'z-o'zini idrok etishdan ham xoli bo'lgan tafakkuri berilgan kishi sifatida tasvirlanadi.

Braxmanlikda salmoqli o'rin tutuvchi qadriyatlar qadimgi hind jamiyatidagi kastalarga bo'linish bilan chambarchas bog'liq. Bunday bog'liqlik (bunga har bir kasta vakili amal qilishi kerak) braxmanlikka nisbatan muxolifatda bo'lgan bxagavatgizm, jaynizm va boshqa oqimlarda ham mavjud. Biroqcharvaklar falsafasida bunday xildagi aloqaning asoslanganligi shubha ostiga olinadi. Bundan tashqari charvaklarda asketizmning targ'ib qilinishi o'rnini baxtni lazzat sifatida tushunishga yo'naltirilgan gedonistik dastur egallaydi.

Qadimgi Xitoy falsafiy tizimlarida ham qadriyaviy ideallar shakllantirilgan. Konfutsiylikda bu qadimiylikka yo'naltirilganlik, «oltin o'rtaliq», «insonsevarlik», «hamdamlik» singari tamoyillardir. Konfutsiylikning asosiy tamoyili shunday: «o'zingga ravo ko'rmaganni o'zgalarga ravo ko'rma». Konfutsiylikning axloqining asosida - fuqaroning podshohga, xotinning erga, o'g'ilning otasiga, kichikning kattaga hurmati va bo'ysunish yotadi.

Daosizmida konfutsiylik qadriyatlarini inkor etiladi. «Mutloq donolarcha» xulq-atvorning asosiy tamoyili - faoliyatsizlik tamoyilidir: hamma narsa tabiiy yo'l hisoblanuvchi dao yo'lida ketishi kerak.

Evropa falsafasida qadriyatlar muammosi Qadimgi Gretsiyada qo'yilgan edi. Bu muammoni birinchilardan bo'lib Suqrot ko'tarib chiqdi. U aksiologiyaning asosiy masalasini «Ne'mat nima?» degan savol bilan ifodaladi. Uning bu savolga murojaat etishi tasodifiy emas edi. Bu hol Afina demokratiyasining tanglikka uchrashining qonuniy natijasi sifatida yuzaga keldi. Mazkur savolga javob berish yangi ijtimoiy ideallarni qidirishda yordam berishi lozim edi. Keyingi davrlarda ham qadriyatlar falsafasi tarixning burilish davrlarida, an'anaviy qadriyatlar

qadrini yo'qotgan, jamiyatning ijtimoiy negizlari obro'sizlangan paytlarda dolzarb ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

Antik an'ana doirasida qadriyatlar muammosini ishlab chiqishda Demokrit katta rol o'ynadi. Qadriyatlar tabiatini naturalistik (ob'ektivistik) talqin qilish an'anasini u boshlab berdi. Antik faylasufning fikriga ko'ra, baxt-saodat, ezgulik, adolat, go'zallik mezonlari tabiatning o'zida, hamma narsaning o'z tabiiy oqimida ketishidadir. Nimaiki tabiatga mos bo'lsa - yaxshi, nimaiki unga zid bo'lsa - yomon. Bizning xuzur-halovatimiz va azoblarimiz, qoniqishimiz va noroziligimizning asosi ana shunda.

Aflotungaham qadriyatlarni ob'ektivistik tushunish xos edi. Biroq materialist Demokritdan farqli o'laroq Aflotun ularning manbaini tabiatda (narsalar olamida) emas, balki vujudsiz mohiyatlar (ob'ektivlashtirilgan tushunchalar) - g'oyalar olamida ko'radi. «Katta Gippiy» asarida Aflotunning Suqrot ismli qahramoni Gippiy bilan suhbatda u yoki bu narsalarni go'zal qiluvchi narsa nima ekanligini bilishga urinadi. Go'zallikning ayrim narsalardagi in'ikosini namoyish qilish orqali go'zallikning nima ekanligini idrok etish mumkin emasligi faylasufni go'zallik «g'oya»siga olib keladiki, ana shu go'zallikning qandaydir bir narsaga qo'shilishi uni go'zal qiladi. Aflotun g'oyalari bir-biriga bo'ysunuvchi muayyan tartibda joylashadi. Mazkur g'oyalar piramidasining cho'qqisi baxt-saodatg'oyasidir. Aynan shu g'oya ijobiy fazilatlarning, go'zallikning, haqiqat va uyg'unlikning manbai bo'lib xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI**

### **1.Qonunlar va boshqa xuququy xujjatlar**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O`zbekiston», 2014 yil. 74 b.
2. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1997 yil. 63 b.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O`zbekiston

taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1997 yil.63 b.

## **II. Kitoblar va risolalar**

4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.-Toshkent, "O'zbekiston", 1995, 69-bet.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlar va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent, "O'zbekiston", 1997, 315-b.
6. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar : Sh. Qurbonov, H. Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" 2000. – 248 b.
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – Toshkent, O'zbekiston, 1998, 98-bet.
8. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi.- Toshkent, "O'zbekiston", 2005, 157-bet.
9. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat.- Toshkent, "O'zbekiston", 1994, 178-bet
10. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.- Toshkent, "O'zbekiston", 2009, 89 bet.
11. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1993, 78 b.
12. I.A.Karimov. Ijobiy ishlarimizni oxirigacha etkazaylik, Toshkent, "O'zbekiston" 1994, 8-9 betlar
13. KarimovI.A. Tarixiy xotirasizkelajakyo`q.-Toshkent, "Sharq", 1998, 31-bet
14. Abdulla Avloniy "TurkiyGulistonyohudahloq".-Toshkent, «O'zbekiston», 1992 .160 b.
15. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.Toshkent,TDPU, 2003. 174. B.
16. Ibrohimov A., Sulstonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. – Toshkent: "O'zbekiston", 1996. – 367 bet
17. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Hoshimxonov M., Usmonov N., G'oziyev S. Nur sharqdandur. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2003.– 252 b.
18. Ibragimov X ., Abdullaeva Sh . Pedagogika / O'quv qo'llanma . –

- Toshkent, “Fan” , 2004. – 182 b .
19. Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. – Toshkent, Fan, 2007
  20. Mustaqillik ilmiy-ommabop izohli lug’at. – Toshkent, SHarq, 1997.
  21. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O’zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010,399 b.
  22. Риккерт Р. О Понятии философии. – «Логос», Кн.1. Спбю 1910. 33-б.
  23. Raximov B.X. Talaba - yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo’naltirish asoslari. Monografiya. –Toshkent: Fan, 2007.- 152 b.
  24. Qodirov . Komil inson tarbiyasi. – Toshkent:. «Mehnat» nashriyoti,, 2001.194 b.
  25. Falsafa qomusiy lug’at – Toshkent,SHarq, 2004.
  26. Xudoyberdiev X. G’oyaviy dunyoqarashni shakllantirishning usullari, shakllari, vositalari.//Oliy ta’lim/ Toshkent,2004.35 b
  27. Xodjaev B.X. Pedagogik aksiologiya. – Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011.184 b.
  28. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o`quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogikafanlaridoktori.. diss. - Toshkent,2000. - B.31-37.
  29. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent,Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2005.322 b.
  30. Hasanboev J., To’raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007. – 116 b.
  31. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: “Fan”, 2006, 312 bet.

### **III. Ro`znoma va jurnallardagi maqolalar.**

- 32.Azizxo’jayev A. G’oyaviy kurashda bo’sh kelmaylik. J. “Tafakkur”, 2004, 3-son.
- 33.Djuraev R.H.,Raximov B.X. Cherez nauku k znaniyam // Xalq ta’limi.- Toshkent, 2007.- №2.-S. 131-133.

- 34.Djuraev R.X., Raximov B.X.Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish // Xalq ta'limi.- Toshkent, 2007.- №3.-B. 138-139.
- 35.Djuraev R.H., Raximov B.X.Yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etishga yo'naltirishda integratsion jarayon //Uzluksiz ta'lim.-Toshkent, 2007. -№5.-B. 80-83
- 36.Djuraev R.H., Raximov B.X.Yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etishga yo'naltirishda integratsion jarayon //Uzluksiz ta'lim.-Toshkent, 2007. -№5.-B. 80-83
- 37.Raximov B.X., Umarov H.E. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy izlanuvchanlikni shakllantirish // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2005.-№6.-B. 47-49.
- 38.Raximov B.X., Raximova U.A. Zamonaviy universitetda talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2006.-№2.-B. 56-60.
- 39.Raximov B.X. Zamonaviy universitetda talaba - yoshlarni ITI ga yo'naltirish muammolari // Uzluksiz ta'lim.-Toshkent,2007.-№3.-B. 12-13.

#### **IV. Internet ma'lumotlari:**

<http://www.bilimdon.uz>

<http://www.ziyonet.uz>.